O‘zbek tilida –lik qo‘shimchasi ham unumdor so‘z yasovchi affikslar sirasiga kiradi va ot, sifat, ravish turkumiga oid so‘zlardan ot yasaydi. Masalan, *abadiylik, ablahlik, adiblik, adirlik, bezovtalik, bemorlik, otalik, bolalik, donolik, hayotlik*. Bu qo‘shimcha otning bir qancha ma’no turlarini hosil qilishda unumdor qo‘shimcha hisoblanadi. Masalan, shaxs oti yasashda quyidagi ma’no guruhlarini hosil qiladi:

1. *Xorazmlik, vodiylik, toshkentlik, shaharlik* so‘zlarida kishining qaysi hududga mansubligiga ishora qilib shaxs oti yasagan.

2. Qarindoshlik nomlariga qo‘shilib kelib, asosdan anglashilgan qarindoshlik munosabatini bildiradi: *otalik, onalik, ukalik, opalik, singillik, farzandlik* kabi.

3. Kishi umrining ma’lum davrlarini, bosqichini bildirgan so‘zlardan shaxs hayotining shu davrini bildiruvchi otlar yasaydi: *bolalik, o‘smirlik, yigitlik, kelinlik, kuyovlik, yoshlik, keksalik* kabi.

Darslik, bozorlik, boylik so‘zlarida narsa nomini hosil qilgan. *Jarlik, adirlik, botqoqlik, quruqlik, muzlik, tepalik* so‘zlari orqali o‘rin-joy oti hosil qilsa, *temirchilik, dekanlik,o‘qituvchilik, oshpazlik* so‘zlarini yasash bilan faoliyat-jarayon oti paydo bo‘lgan.

-lik qo‘shimchasi mavhum ot yasash xususiyatiga ham ega. *Go‘zallik, bezovtalik, halollik, hayronlik, hazinlik, hissizlik, hurlik, injiqlik, mardlik, mamnunlik* kabi so‘zlarni bunga misol qilishimiz mumkin.

-gi affiksi fe’llardan harakat obyekti bilan bog‘liq ot yasaydi: *sevgi, kulgi, supurgi* kabi. -gi qo‘shimchasi hozirgi kunda yangi so‘z yasash uchun kam qo‘llaniladi. *Supurgi, kergi* so‘zlarida ushbu qo‘shimcha narsa-buyum oti yasagan.

-gi qo‘shimchasining mavhum ot yasash xususiyati esa ko‘proq. Masalan, *sevgi, sezgi, kulgi* kabi so‘zlar.

-k, -q (-ik, -iq) affikslari asli bir affiks bo‘lib, asosning qattiq-yumshoqligiga qarab, asosdagi unlining ta’sirida fonetik variantlari qo‘llanildi: *tilak, kerik, ko‘rik, og‘riq, qaviq, chopiq, qavariq, xo‘rsiniq, yutuq, buyruq, o‘roq, qiynoq* kabi [5:183]

Bu affiks fe’llardan ot yasaydi. *Qayroq, bo‘lak, chiziq, chandiq, qavariq, yamoq, butoq, o‘roq, elak, to‘shak, kechik, elak* so‘zlarida narsa-buyum oti yasashga xizmat qilgan. *Ko‘rik, chopiq,, suvoq* so‘zlarida faoliyat-jarayon oti yasagan. *Tilak, kekirik, chinqiriq, yutqiziq, qaytariq, kesatiq, sanoq, charchoq, chanqoq, zirqiroq* so‘zlarida mavhum ot hosil qilgan.

-ma affiksi fe’ldan ot va sifat yasash uchun xizmat qiladi. Ot yasovchi sifatida ham, sifat yasovchi sifatida ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida mahsulli affiks hisoblanadi. [1:81] –ma affiksi narsa-buyum oti va o‘rin-joy oti yasaydi. Narsa-buyum oti yasashda unumdorlik bilan bir qatorda polisemiya ham hosil qiladi. A.Hojiyevning “O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi” qo‘llanmasida –ma affiksi yordamida yasalgan narsa otlarining bir qancha turlari sanab o‘tilgan. [1:81]

1. Fe’ldan anglashilgan ish-harakat uchun mo‘ljallangan narsani bildiruvchi nasa-buyum otlarini yasaydi: *qoplama, tirkama.*

2. Fe’ldan anglashilgan ish-harakat natijasida yuzaga kelgan narsa nomini bildiradi: *qazilma, buklama, qatlama, cho‘zma, qorishma, eritma, aralashma.*

3. Fe’ldan anglashilgan ish-harakat bilan belgilanuvchi, ya’ni shu harakatni amalga oshiruvchi narsa otlarini hosil qiladi*: isitma, tortma, terlama, qichima, buyurtma, o‘sma.*

4. Fe’ldan anglashilgan ish-harakatning nomini bildiradi: *otishma, boshlama, o‘xshama, eslatma.*

Aytish joizki, yuqoridagi guruhlarda keltirilgan ayrim otlar boshqa ilmiy adabiyotlarda o’zgacha tavsiflanadi. Jumladan, Q.Sapayevning “Hozirgi o‘zbek tili” uslubiy qo‘llanmasida *tortma* o‘rin-joy oti, *isitma, terlama, qichima* so‘zlari mavhum tushunchalarni bildiruvchi ot sifatida keltirilgan.[2:47]

–ma affiksi yordamida boshqa o‘rin-joy otlari ham yasaladi. Masalan, *bostirma, boshqarma* kabi.

Ot yasovchi –m (-im,-um) affiksi fe’ldan narsa-buyum oti, faoliyat-jarayon oti va mavhum ot yasash xususiyatiga ega bo‘lgan unumdor affikslar hisoblanadi. –im shakli *bichim, bosim, bo‘lim, bo‘g‘im, kiyim* so‘zlarida narsa-buyum oti yasaydi. *Terim, ajrim, chiqim* so‘zlarida faoliyat-jarayon oti hosil qilgan. *Bilim* so‘zida esa mavhum ot yasaganini ko‘rishimiz mumkin.

-um shakli *uyum,* so‘zida narsa-buyum oti yasasa, *unum* so‘zida faoliyat-jarayon oti hosil qilgan.

–m shakli *to‘plam, ho‘plam, bog‘lam, buklam* so‘zlarida narsa-buyum oti, *chidam, aldam* so‘zlarida esa mavhum ot yasab affiksal polisemiyani yuzaga chiqargan.

-kor affiksi aniq va mavhum otlarga qo‘shilib, shaxs oti yasaydi. Biroq aniq otlarga va mavhum otlarga qo‘shilib yasalishiga ko‘ra ikkixil ma’noli:

1. Aniq otlarga qo‘shilib, asosdan anglashilgan narsa, predmetni yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti: paxtakor, lavlagikor, sholikor, g‘allakor.

2. Mavhum otlarga qo‘shilib, asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti: madadkor, xiyonatkor, gunohkor, tajovuzkor, tashabbuskor, ijodkor, xizmatkor [6:213]

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, ko‘pgina ot yasovchi affikslar matn mazmunidan kelib chiqqan holda polisemantik xususiyatini namoyon qila oladi. Biroq bunda qo‘shimchalarning unumdorlik darajasi, qo‘llanilishi turlicha bo‘ladi. Bu qo‘shimchalarning imkoniyati, hozirgi kunda tilimizda qo‘llanilish darajasi bilan uzviy bog‘liqdir. Affikslarning polisemantik ma’nosini chuqur tahlil qilish, o‘rganish ularning naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini namoyon qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi” Hojiyev A. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007.
2. “Hozirgi o‘zbek tili” uslubiy qo‘llanma. Sapayev Q. – Toshkent.2009.
3. “O‘zbek tili grammatikasi”. 1-jild, -Toshkent:Fan, 1975.
4. “O‘zbek tiling so‘z tarkibi”o‘quv lug‘ati. Mengliyev B., Bahriddinova B. – Toshkent. 2006.
5. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 1-qism. Darslik. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Toshkent. –“O‘qituvchi”. 1980.
6. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova – Toshkent: 2009.

WIND TURBINES AND ITS APPLICATIONS

Baratov Laziz Suyun o‘g‘li
Assistent lecturer of the Jizzakh Polytechnic Institute
Parmonov Shaxzod Abdumajit o‘g‘li
Assistent lecturer of the Jizzakh Polytechnic Institute

Annotation. The article deals with small wind turbines for non-volatile systems or small smart wind turbine power systems. Not all small turbine manufacturers around the world have access to the engineering capabilities to design an efficient turbine. The purpose of this paper is to provide an easy-to-use integrated method for designing and predicting the performance of wind turbines, as well as demonstrating examples of its application.

The base model for the performance design and prediction method is based on an improved version of the well-established vane element momentum theory coded in MATLAB™. Results: (i) full geometry of aerodynamically shaped and twisted blades that are designed to provide maximum power output for a given wind speed, and (ii) dimensionless turbine performance in terms of power, torque and thrust ratio. depending on the speed ratio of the handpiece. Dimensionless operating characteristics are the basis for dimensional characteristics and synthesis of the rotor to the electric generator with its load.

Two parametric studies illustrate typical results of the design method and performance prediction: change in the calculated tip speed ratio and change in the number of blades. The predicted effect of these parameters on dimensionless performance is in good agreement with common knowledge and experience.

Finally, the interaction of the various turbine rotors and a given transmission/charger is simulated. The selection criteria for the rotor are the annual energy output, the rotational speed of the rotor at the calculated wind speed, as well as in strong winds, and the axial thrust exerted on the rotor by the wind. The complete rotor/transmission/charger assembly has been successfully tested in the wind tunnel of the University of Siegen.

Key words: small-sized horizontal-axis wind turbine, design, performance calculation, impetus of the blade element.

INTRODUCTION. Three trends can be observed in the production and supply of electricity: first, the use of free primary, i.e. renewable energy, the avoidance of CO2 emission certificate costs and other end-of-life waste disposal costs. Second, distributed small and unstable energy resources are combined into a small smart grid to improve the reliability and reliability of decentralized networks. "Smart" in this

context refers to the control of production and distribution using smart meters, smart appliances, storage media such as batteries and renewable energy. This may be of particular interest to rural distribution networks and the future infrastructure needed for electric vehicles. For example, under the Seventh Framework Programme, the European Commission has supported numerous projects such as “Open Systems for Energy Services”, “Smart… Rural Grid Implementing Sustainable Electricity Distribution Infrastructures, Services and Business Models”, “Scalable Household Management Infrastructure” (FP7 [one]). Thirdly, in some cases, the cost of supplying electricity to the grid (or receiving electricity back from the grid) may exceed all other costs. Connecting to the public network, even in remote areas, may not be economically feasible. This paper focuses exclusively on small horizontal axis wind turbines (HAWTs) for grid-independent or small smart grid systems, fig. 1. It is clear that current and future demand provides sufficient support to support a significant number of producers. In highly industrialized regions of the world, advanced techniques allow high quality products and even mass production, while in other parts of the world, simple manufacturing techniques are needed, Fig. 2. In the past, ill-conceived small wind turbines have damaged the reputation of such machines. Today, standards and testing institutes are increasingly providing consumers with realistic and comparable performance ratings for competing products. Examples are the British Small Wind Turbine Standard [2], the German Small Wind Turbine Annual Market Review [3], and the Austrian Small Turbine Test Site Energie-For Schungspark Lichtenegg [4]. On the other hand, not all small turbine manufacturers, especially small-scale manufacturers, may have access to engineering capabilities to design an efficient turbine. There have been a number of studies on wind turbines focusing on structural analysis, rotor dynamics and shape optimization of wind turbines. Yuan Chang Chen et al. [19,20] and Wel Chen et al. [21], have recently studied and reported in detail on blade rotor dynamics and blade modeling. Many computational approaches have also found application in the aerodynamic design of wind turbines, such as computational fluid dynamics (CFD), wake method, and blade momentum theory (BEM). The BEM theory is widely used in the aerodynamic design of wind turbines due to its simplicity and accuracy [26]. With blade optimization, a power factor close to the Betz limit of 59.2% can be realized with wind turbines.

Most wind turbine optimizations are carried out for wind turbines operating under design conditions. Wind turbines are subjected to various operating conditions. In addition, matching the electrical generator to the performance curves of the turbine is fundamental to ensure that the components are protected from extreme structural stresses.



Figure 1. Examples of micro and small wind turbines in the Netherlands

Structure and Performance Calculation Procedure

The turbine design methodology includes three main steps: (i) designing the HAVT rotor, especially its shaped and twisted blades, (ii) predicting its performance in terms of shaft power, shaft torque and axial thrust on the complete rotor, (iii) the total power generated by the "load" torque from the generator. After these last steps, it is easy to determine the total power generation for a given—say, annual—wind speed histogram. Ultimately, measures must be developed to achieve low wind speed on turn on and off function in high winds. The last steps are beyond the scope of this article.

The purpose of this exemplary case study is to develop a HAWT for a small generator/charger. The analysis involves comparing the performance curves of the wind turbine rotor with the torque characteristic of the charger. After fabrication, a final wind tunnel experiment confirms the theoretical analysis.

For experiments, the rotor was installed in front of the transmission, consisting of a steel shaft, separate bearings and an electric generator. The charger was connected to the generator. The entire assembly has been tested in the wind tunnel of the University of Siegen. This wind tunnel is of a closed type, providing a maximum wind speed in the wind tunnel of 70 m/s with a turbulence intensity of less than 0.35%. On fig. 12 shows an experimental setup in a wind tunnel (all dimensions are in millimeters). The wind speed was measured with a propeller anemometer, and the rotation speed was measured with an optical laser tachometer. The wind speed changed in steps. During steady operation, the speed of rotation of the turbine was recorded. It is important to note that the air density in the wind tunnel laboratory was approx. ρ= 1.17 kg/m3, which leads to different turbine dimensional characteristics compared to the previous sections. This has been taken into account. Ideally, the power at the rotor shaft should be measured. It was impossible. Instead, electrical power was measured.

A comparison of the rotational speed of the entire rotor/charger assembly in volumetric mode ("Battery discharged - charge") at various wind speeds is shown in Figure 13 on the left. Obviously, the “loading” of the rotor by the electric generator is

very close to what was expected from the previous analysis. This partially confirms the aerodynamic design of the rotor. The difference between the predicted power on the rotor shaft and the measured electrical power, fig. 13 on the right is a measure of the overall electrical efficiency of the entire assembly. The big loss is connected with the electric generator. Its electrical efficiency characteristic has been measured separately - similar to the full generator/charger/battery characteristics previously, and is depicted for n = 560 rpm in fig. 14. At PS = 29 W (corresponding to c0 = 6 m/s), the electric power of the generator is 47% efficient. Other electrical losses are associated with the battery charger and - from c0 = 7.5 m/s - with a resistive load resistor to protect the battery. Ultimately, fundamental errors due to blockage of the wind tunnel test section by the rotor and potential reduction in turbine efficiency due to manual fabrication may explain the rotor's lower-than-predicted power factor. Note that the turbine shaft power could not be measured directly during the wind tunnel campaign.

Summary and Conclusion.

An analytical method for the aerodynamic design of horizontal axis wind turbines is described, including performance prediction. The theory behind design, shaft power, and thrust prediction is an advanced version of the well-established blade-element-momentum (BEM) theory, coded in our proprietary MATLAB™ deapWind program. The procedure yields a geometry of aerodynamically shaped and twisted blades that are designed to produce maximum power output for a given design wind speed. Two parametric studies demonstrated typical results of the design method and performance prediction: (i) a design option for tipping speed ratio λ; the higher λthe design, the higher the rotational speed at a given wind speed and the lower the torque. Therefore, the choice λof design allows the turbine to be adapted to locations with low or high average wind speeds. In addition, the higher λthe design, the thinner the blades, which can affect the quality of workmanship and the reliability of the design. (ii) Changing the number of blades B in the rotor with λthe design unchanged; as expected, the results showed that the dimensionless performance of the turbine is almost independent of the number of selected blades; the negligible influence of B is due to the influence of Re and various aerodynamic loss mechanisms taken into account in the improved theory of momentum of the blade element. Thus, the selection criterion for B is, among other things, the technical feasibility of many thin or a few more massive blades, and not the power output, as is sometimes naively assumed.

After all, the more detailed case study was for a micro wind turbine for a small, inexpensive generator/charger. The aim was to provide turbine blades with high aerodynamic quality, which could be produced using technologies available in less developed regions of the world. The analysis included comparing the performance curves of the turbine rotor with the torque curve of the charger, fabrication of the rotor, and a final wind tunnel experiment to validate the theoretical analysis. The starting

point was a yearly histogram of measured wind speed data collected at a candidate site in central rural Kenya. Prior to wind turbine design, the torque/speed characteristic of a generator was determined experimentally in the laboratory by connecting the generator shaft to an auxiliary motor. Torque was measured at any set speed using a counter torque measuring shaft. The generator was connected to a charge controller and a dead battery.

The interaction of various turbine rotors and transmission/battery charging has been simulated. The criteria for selecting the rotor were the annual output of energy on the shaft, the speed of rotation of the rotor at the most prevailing wind speed and in strong winds, as well as the axial thrust acting on the rotor by the wind. A blade manufacturing technology was chosen that required only a standard carpentry shop. Compared to 3D printing and additive manufacturing, this technology is simple, cheap, and available to less developed countries to develop wind turbines to power communities outside of national grids. Finally, the complete rotor/transmission/charger assembly was tested in the wind tunnel at the University of Siegen. The rotation rate for various wind speeds is very close to what was expected from the previous analysis. This partially confirms the aerodynamic design of the rotor. The difference between the predicted power on the rotor shaft and the measured power of the electric generator. i.e., the overall electrical efficiency value is mainly related to the electrical losses in the alternator and battery charger circuit. Future efforts should include passive yaw and storm protection. The tail vane can act as a passive yaw system or a downwind rotor setting. Predictive thrust can facilitate the design of any mechanical tilt mechanism and ultimately the sizing of the tower. Advanced electrical control can help to safely shut down in high winds and start the turbine early.

References:

1. Суюн Л. и др. РЕАКТИВ ҚУВВАТ МАНБАЛАРИНИ НАЗОРАТ ВА БОШҚАРУВИ ЎЗГАРТГИЧЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА ЎЗГАРТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ //INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 202-207

2. Baratov L., Majidov X. ELEKTROMAGNIT O ‘ZGARTGICH PARAMETRLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 21.

3. Qurbanov A., Baratov L., Jalilov O. QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISHDA QUYOSH FOTOELEKTR O’ZGARTGICHLARINING AXAMIYATI //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 6.

4. Qurbanov A., Baratov L., Jalilov O. SANOAT KORXONALARINING SAMARADORLIK KO’RSATKICHINI OSHIRISH MAQSADIDA ELEKTR YUKLAMALARI KARTOGRAMMASINI QURISH VA BPP NING O

‘RNATILISH JOYINI ANIQLASH //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 6.

5. Baratov L., Xoldorov B., Majidov X. MUALLIFLIK GUVOHNOMASI. – 2023.

6. Baratov L., Xoldorov B., Majidov X. CURRENT ISSUES OF ENERGY //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 7.

7. Absalamovich N. B., Laziz B. The Concept of a Pumped Storage Power Plant //International Journal of Scientific Trends. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 1-6.

8. Наримонов Б. А., Баратов Л. С. ПЕРСПЕКТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ВЕТРОЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 15. – C. 7-10.

O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA KIRUVCHI TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH SURATLARI VA KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI
PICTURES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF DOMESTIC AND INBOUND TOURISM IN UZBEKISTAN AND PERSONNEL TRAINING POLICY

Muqumjon Axunov Muhammadaminovich
(Phd) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
muqumjon.axunov@bk.ru
Sayfutdinova Mexrinoz Zahiddin qizi
Andijon davlat chet tillari instituti Ingiliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi
mexrinozbonusayfutdinova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ichki va kiruvchi turizmni barqaror rivojlantirish undagi muammo va yechimlar haqida keltirilgan. Bugungi kundagi kadrlar tayyorlash siyosati, undagi kamchiliklar, shu kungacha turizm sohasidagi erishilgan yutuqlar haqida yozilgan. Maqolada turizm sohasini rivojlantirish borasida qabul qilingan farmon va uning ijrosi, natijasi haqida keltirib o'tilgan. Hozirigi kundagi kadrlar tayyorlash uchun foydalanilayotgan o'quv-adabiyotlar va endilikda zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanish kabi mavzular haqida yozilgan bo'lib ularga alohida urg'u berilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, BMT, mehmonxona, mehmondo'stlik, servis, mutaxassislar, diversifikatsiya, farmon, turistik zonalar, turistik kompaniyalar, sayyohlar, zamonaviy texnologiyalar, "Kelajak mehmonxonalari", xorijiy tillar, video-kontent.

Annotation: This article presents the problems and solutions of sustainable development of domestic and inbound tourism in Uzbekistan. Today's personnel training policy, its shortcomings, and achievements in the field of tourism are written. The article mentions the decree adopted on the development of the tourism sector and its implementation and results. Special emphasis has been placed on topics such as the current educational literature and the use of modern teaching-methodical manuals.

Key words: Tourism, UN, hotel, hospitality, service, specialists, diversification, decree, tourist zones, tourist companies, tourists, modern technologies, "Future Hotels", foreign languages, video content.

Аннотация: В данной статье представлены проблемы и пути решения устойчивого развития внутреннего и въездного туризма в Узбекистане. Написана сегодняшняя политика подготовки кадров, ее недостатки и достижения в сфере туризма. В статье упоминается принятый указ о развитии туристической сферы, его реализация и результаты. Особый акцент был сделан на таких темах, как

наличие современной учебной литературы и использование современных учебно-методических пособий.

Ключевые слова: Туризм, ООН, отель, гостеприимство, сервис, специалисты, диверсификация, указ, туристические зоны, туристические компании, туристы, современные технологии, «Отели будущего», иностранные языки, видеоконтент.

Rivojlanayotgan davrda jahon iqtisodiyotidagi turizm sanoati haqli ravishda yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Bu asosan global siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, madaniy, ekologik o'zgarishlar bilan bog'liq. Yangi asr, BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) tahliliga ko'ra, "turizm asri" deb e'lon qilindi, ya'ni turizm butun dunyo hamjamiyati iqtisodiyotining hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda, uning milliardlab aholisi har yili sayohatga chiqmoqda. Mehmonxona xizmatlari sektori turizm sohasida ishlaydiganlarning 65 foizigacha va turizmdan tushgan mablag'larning 68 foizini tashkil etadi. Ko'rib turganingizdek ushbu raqamlar mehmonxona sanoati butun sayyohlik sohasining asosi ekanligini aniq ko'rsatib turibdi. Butun dunyoda mehmondo'stlik va turizm sohasida tog'ridan- to'g'ri ish bilan ta'minlash 80 millonga yaqin ish joylari va agar biz ularga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlarni (umumiy ovqatlanish, avtoulovlarni ijaraga berish, fitness, go'zallik salonlari, ekskursiyalarni tashkil etish, sug'urta, bo'sh vaqtni tashkil etish va boshqalar) hisobga olsak, bu ko'rsatkich 200 millionga oshadi. Bundan tashqari, har yili har xil odamlar bilan yuqori professional darajada muloqot qila oladigan ko'proq xodimlar talab qilinadi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ushbu sohada ishlaydigan mutaxassislardan yangi ko'nikma va bilimlarni talab qildi, shuningdek ilgari mavjud bo'lmagan ish pozitsiyalarini yaratdi. Bugungi kunda mehmonxona raqobatbardosh bo'lishi uchun unga nafaqat yaxshi o'qitilgan qabul xodimlari, xizmatkorlar va oshpazlar, balki malakali menejerlar, moliyaviy tahlilchilar, pul tushumlari bo'yicha mutaxassislar va sifat inspektorlari ham kerak. Ma'lumki, kadrlarni tayyorlash nazariyasi va metodikasi rus olimlaridan A. P. Belyaeva, N.I. Dumchenko, V.A. Kalneylarning ilmiy ishlarida ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim mazmuni muammosini o'rganish V.V. Kraevskiy.B.C. Lednev, S. Ya. Lerner kabi olimlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizda sayyohlik sohasini rivojlantirishning ustuvor masalalari va ularning yechimlari xususida M.T. Aliyeva, A.F. Saidov, I.S. Tuxliev, D.Q. Usmonova, N. Tuxliev, Q. X. Abdurahmonov, M. Q. Pardaev, B. Sh. Safarov, O. X. Xamidov va bir qator boshqa iqtisodchi-olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan va o'rganib chiqilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, boshqaruv tizimini yaratish, turizm turlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha qaror va farmonlar imzolandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.

Mirziyoyevning 2019- yil 5-yanvardagi PF-5611-son farmoniga ko'ra, 2019 ---- 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasiga muvofiq:

Turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish;

turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish;

transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;

turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;

O'zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash;

turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Shu kabi yana bir qancha vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib hozirgi kunga kelib qilingan ishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi ichki sayohatlarning umumiy soni 2016-yildagi 8.8 millondan 2019-yilda 14.7 millonga, 2021-yilda esa 15 millon sayohatga o'sdi.

So'nggi 4 yil ichida esa O'zbekistonda katta, o'rta va kichik 833 ta yangi mehmonxona foydalanishga topshirildi. Joylashtirish vositalarining umumiy soni 1442 donaga yetdi, ularning soni 33.4 ming donani tashkil etdi. Ayni paytda O'zbekistonda qurilish bosqichida yaqin kelajakda foydalanish uchun topshiriladigan juda ko'plab zamonaviy mehmonxonalar loyihalari mavjud.

O'zbekistonda ichki turizmni barqaror rivojlantirish uchun dastlab ichki transport qatnovlarni, kichik mehmonxona servislarini yaxshilash lozim. Kiruvchi turizmni barqaror rivojlantirish uchun esa eng avval O'zbekistonning diqqatga sazovor hamda turistik zo'nalari haqida xorijiy tillarda tayyorlangan video-kontentlarni ishlab chiqish, kuchli raqobatni yo'lga qo'yish uchun xususiy turistik kompaniyalarini ko'paytirish, gidlarni tayyorlashda eng zamonaviy metodlardan foydalanish va ularni ko'proq amaliyotga jalb qilish kabi masalalarga e'tibor berish kerak. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida juda ko'plab hali rekonstruksiya qilinmagan turistik zonalar mavjud bo'lib dastavval ularni tamirlash, obodonlashtirish darkor. Zamonaviy sayyohlik agentliklari va mehmonxonalariga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay oladigan, sayyohlarning tobora ortib borayotgan ehtiyojlari va jahon sayohat sanoatidagi innovatsion tendentsiyalarni hisobga oladigan, tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida sanoat korxonalarini boshqarishning murakkab

masalalarini o‘z qo‘llariga olishga qodir yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda turizm va mehmondo‘stlik sanoati doirasidagi davlat va ta’lim tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash borasida quyidagi muammolarni qayd etish lozim:

1. Ta’lim dasturlarining mehnat bozoriga mos kelmasligi;
2. Xalqaro standartlarga javob beradigan va dunyoning yetakchi mehmonxonalarida tajriba oshirgan yuqori malakali kadrlar sonining etarli emasligi;
3. Xorijiy tillarni o‘rganish darajasi pastligi;
4. Ta’lim tashkilotlaridagi moddiy texnik bazaning rivojlanmaganligi;
5. Yuqori sifatli o‘quv qo‘llanmaqlari va adabiyotlarning etishmasligi.
6. Amaliy faoliyat darajasining qoniqarsizligi;
7. Zamonaviy texnologik bilimlarga ega tor doiradagi mutaxassislarning yetishmasligi onlayn tizimda ishlaydigan “Kelajak mehmonxonalari” ning rivojlanishini sekinlashtirmoqda.

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim dasturining mehnat bozoriga mos keladigon tarzda ishlab chiqish;

Kadrlarni amaliyotini dunyoning yetakchi mehmonxonalarida va turistik kompaniyalarda tashkil etish;

Kadrlarning xorijiy tillarni o'rganishiga jiddiy e'tibor berish;

Ta'lim tashkilotlarini zamonaviy texnik jihozlar, o'quv qo'llanmalar, adabiyotlar bilan ta'minlash;

Amaliyot faoliyat davomida har bir kadr ishini nazorat qilish;

Shunday qilib, yaqin kelajakda O'zbekistonda ichki va kiruvchi turizmni barqaror rivojlantirish uchun qo'yilgan barcha shartlarni hamda farmonlarni to'la va qoniqarli darajada amalga oshirish mamlakat turizm sohasidagi ulkan zafarlari uchun yo'l ochib beradi. Har bir qudratli davlatni asosiy iqtisodiy tarafi bu turizm sohasi bo'lib, u mamlakatning moddiy tayanchidir. Yildan yilga malakali mutaxassis va kadrlarga bo'lgan talab ham turizmning o'sishi bilan birgalikda ortadi. Qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish turizm industriyasi uchun XXI asr talablariga javob beradigan yuqori darajadagi kadrlar tayyorlashga erishishga qaratilgan, professional kadrlar tayyorlash borasida integratsiyalashgan tizimni yaratish, ta’lim va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sojida Axtam Qizi Sunnatova TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH MUAMMOSI VA ULARGA QO'YILGAN TALABLAR // Scientific progress. 2021. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasida-

kadrlar-tayyorlash-muammosi-va-ularga-qoyilgan-talablar (дата обращения: 03.11.2023).

2. Никольская Е.Ю. Стратегия управления человеческими ресурсами в индустрии гостеприимства и туризма, М.РИСК, 2008, №2.

3. Никольская Е.Ю. Концептуальные вопросы туристского образования. Вестник Сочинского государственного университета туризма и курортного дела. 2010. №3 (13). С.82-85

4.http://lex.uz//docs/-4143188 O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktyabrdagi “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‟g‟risida”gi PQ-5270-sonli Qarori //https://lex.uz.

6. A.Teshaboyev, & Sayfutdinova Mexrinoz Zahiddin qizi. (2023). CHET TILLARINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS, 1(14.04), 114–117. Retrieved from https://www.myscience.uz/index.php/issue/article/view/259

7. B. Gulomova, and M. Akhunov. "SYNONYMS OF THE LEXEME “CRIME” AND THEIR PECULIARITIES" Science and innovation, vol. 2, no. C7, 2023, pp. 81-84. doi:10.5281/zenodo.8185604

8. turizm iqtisodi - ARM http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/6-y-Turizm-iqtisodi.-Oquv-qollanma.-A.M.Abduvohidov-F.S.Qutlimurotov.-T-2011.pdf

9. Muxammadjonovich A. M. JINOYAT VA JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 892-894.

10. Bekmurodova, Laylo TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK SANOATIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI // ORIENSS. 2022. №8. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-va-mehmondo-stlik-sanoatida-kadrlar-tayyorlash-tizimini-rivojlantirishning-istiqbollari (дата обращения: 04.11.2023).

XALQARO OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI NIGOHIDA O‘ZBEKISTON: KUZATUV VA TAHLIL

Sagdullayev Otabek Alisherovich
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti
sagdullayevotabek51@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi davr xalqaro ommaviy axborot vositalarining yaxlit axborot oqimini shakllantirishdagi o‘rni, xalqaro media diqqat markazi qaratilgan mavzular, mamlakatlar siyosatida axborot erkinligining o‘rni haqida batafsil so‘z boradi. Shu bilan birgalikda, xalqara bosma va internet nashrlarida O‘zbekistonga oid axborotlarning berilish jarayoni hamda u bilan bog‘liq vaziyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: axborot oqimi, axborot infrastrukturasi, demokratik jamiyat, matbuot erkinligi.

UZBEKISTAN FROM THE POINT OF VIEW OF THE INTERNATIONAL MEDIA: MONITORING AND ANALYSIS

Abstract: This article describes in detail the role of international mass media in shaping the overall information flow, the topics focused on by the international media, and the role of freedom of information in the politics of countries. Along with this, the process of providing information about Uzbekistan in international print and internet publications and related situations will be analyzed.

Keywords: information flow, information infrastructure, democratic society, press freedom.

So‘nggi yillarda boy tarix, rang-barang an’ana va qadriyatlarga ega yurtimizga jahon ommaviy axborot vositalarining qiziqishi va e’tibori kundan-kunga ortib bormoqda. Mamlakatimizdagi turli xil muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir paytda, butun dunyo jurnalistlari va ommaviy axborot vositalari bu voqealarni yaqindan kuzatishga harakat qilayotgani, u yoki bu xususiyatini o‘rganib chiqib, o‘z tahlil va xulosalarini berishdagi faolligi jahon axborot oqimida yurtimizning ham o‘z ulushi borligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning xalqaro ommaviy axborot vositalarida yoritilishi mamlakatning turli jihatlari, jumladan, siyosiy islohotlari, iqtisodiy salohiyati, madaniy merosi, sport, sog‘liqni saqlash, turizm va sayyohlik imkoniyatlari haqida batafsil axborot berishga, xalqaro maydonda mamlakatimizning o‘z qiyofasini yaratishga hissa qo‘shadi.

Bugungi globallashuv davrida jahon mamlakatlari media axborot almashinuvi va infrastrukturasi shiddat bilan rivojlanib, bir tizim sifatida birlashmoqda. Inson aql-idroki, turmush sivilizatsiyasining bemisl ixtirolaridan bo‘lgan mazkur oqim “jahon jurnalistikasi” yoxud “xalqaro jurnalistika” sifatida atalib, dunyo e’tiborini o‘zida jamlamoqda. Axborot globallashuvi jahon mamlakatlaridagi shart-sharoit bilan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi umumiylikni taqqoslash keltirib chiqardi. Agar demokratik-huquqiy jamiyatning bosh belgisi va shartlaridan biri – ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inobatga olsak, axborotning bu borada nechog‘li ahamiyatli ekanligi ko‘rinadi. Jahon xalqaro jurnalistikasida bir nechta jurnalistik maktablarini qamrab olishga qodir ko‘plab muhim xalqaro hujjatlar yaratilayotganligi hamda ularning amaldagi ifodasi sifatida u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-siyosiy holati, ekologiya, sport, matbuot erkinligi kabi tomonlarini xalqaro miqyosda kuzatish, ular haqida fikr-mulohaza yuritish, baho berish va shu asosda muayyan mamlakatdagi ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odati birmuncha ommalashdi. Bu kabi holatlar, tabiiyki, dunyoni yaxlit axborot maydoniga aylantirishga sabab bo‘ladi. Mamlakatlarning muayyan sohadagi salohiyatini o‘lchashda ko‘p axborotga egalik tamoyilining ustuvor qo‘yilgani buning yorqin dalilidir. Ushbu omil taqozosi bilan endilikda axborotga egalik qilish sari raqobat ham kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonning o‘zi xalqaro jurnalistikaning qaror topishi, rivojlanishi hamda butunjahon jurnalistikasi xususiyatlarining yaxlitlashuvini yuzaga keltiradi. Filologiya fanlari doktori X.Do‘stmuhamedovning fikriga ko‘ra, bu hol milliy jurnalistikani jahon jurnalistikasi nuqtai nazaridan, ayni chog‘da jahon jurnalistikasini milliy jurnalistika nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil qilish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.[1]

Jahon tajribasidan ma’lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashi, ularning mehnat, ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishi shartlarini o‘zgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi. Har xil axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan sistemalar va ma’lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat mudofaasini boshqarishning ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Bugungi kunda yanada rivojlanib, o’zining yangi yo’nalishlariga ega bo’lib borayotgan butunjahon internet jurnalistikasi keng qamrovliligi va auditoriyasining chegara bilmasligi bilan shu jihatdan ahamiyatlidir. [2]

Xalqaro ijtimoiy-siyosiy va diplomatik axborot saytlarida O‘zbekistonga oid xabarlarni kuzatib, shuni aytish mumkinki, shu kunga qadar mamlakatimiz haqidagi jahon ommaviy axborot vositalari tomonidan e’lon qilingan maqola va xabarlarda, asosan, siyosiy hayot, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, umumiy tashqi savdo aylanmasi, davlatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirilgan xorijiy investitsiyalar oqimi, turizm salohiyati, qiziqarli tarix, sport va ekologiya kabi mavzularga qaratilgan. Ammo, xalqaro OAV

nigohini hech bir soha siyosiy tarmoqchalik o‘ziga jalb etmagan. Misol uchun 2021-yilda o‘tkazilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” xalqaro konferensiyasi sabab, jahonning turli nufuzli nashrlarining diqqati Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga, ayniqsa O‘zbekistonga qaratildi. Mazkur konferensiya munosabati bilan Yevropa ommaviy axborot vositalarida mavzuga oid ekspertlar baholari va tahliliy materiallar ko‘p miqdorda chop etildi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz tomonidan keng miqyosdagi transmintaqaviy o‘zaro bog‘liqlikni shakllantirish bo‘yicha ilgari surilayotgan strategiya mohiyati haqida fikr-mulohazalar xalqaro OAV nigohida ko‘proq qiziqish uyg‘otgan. Xususan, ayni davrda “Diplomat” (AQSh), “Project Syndicate” (AQSh), “Zamonaviy diplomatiya” (Yevropa Ittifoqi), “Nezavisimaya gazeta” (Rossiya), “Anadolu” (Turkiya) va “Tribun” (Pokiston) kabi nufuzli xalqaro nashrlarda mamlakatimizning Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish, transmintaqaviy bog‘liqlik va qo‘shnichilikni shakllantirishdagi roli yuqori baholanganini ko‘rish mumkin. O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanishini diqqat bilan kuzatib boradigan Gollandiyaning xalqaro “Diplomat magazine” jurnali ushbu mavzuni katta planda yotirishga harakat qilgan: “O‘zbekiston barcha mintaqa davlatlarining umumiy farovonligi uchun tinchlik o‘rnatish foydali ekanligini ko‘rsatib, afg‘on muammosi bo‘yicha keng mintaqaviy konsensusga erishishga harakat qilmoqda. Shu munosabat bilan xorijiy ekspertlarning ishonchi komilki, Toshkentning o‘zaro bog‘liqlik rejalari O‘zbekistonning amaldagi afg‘on siyosatini uzviy ravishda to‘ldiradi. Rossiyaning “Nezavisimaya gazeta” nashrining yozishicha, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan Mozori Sharif-Kobul-Peshovar temir yo‘li loyihasi Afg‘oniston uchun “iqtisodiy tramplin”ga aylanadi, o‘n minglab ish o‘rinlari va muqobil daromad manbalari yaratiladi. Umuman olganda, O‘zbekistonning o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha rejalarini amalda amalga oshirish bir vaqtning o‘zida ikki mintaqada yangi iqtisodiy voqelikni yuzaga keltirishi, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining iqtisodiy rivojlanishi uchun eng qulay zamin va barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishi, shuningdek, iqtisodiyotni izchil yaxshilash imkonini beradi.[3]

Bundan tashqari, xuddi shu yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston-Hindiston sammiti tafsilotlari Hindiston ommaviy axborot vositalarida berilishi ham kuzatishlarimizga obyekt bo‘ldi. “Business Central Asia” jurnalida e’lon qilingan maqolada sammitga oid mulohazalar, hamkorlik natijalari va istiqbollari bilan bir qatorda ikki davlatning mushtarak o‘tmishi va bugungi kunda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish samaradorligi haqida ham fikrlar bildirilgan.

Xalqaro ommaviy axborot vositalarining bu kabi hodisalarni diqqat bilan kuzatib borishi, erishilgan yutuqlar va yuz berishi mumkin bo‘lgan muammolar haqida tahlil va sharhlar berishi foydadan xoli emas. Voqelik qanchalik rang-barang aks etsa, jarayon haqida shunchalik real tasavvur paydo bo‘ladi, ammo turli xalqlar va davlatlar

birdek demokratik qadriyatlarga intilishlaridan qat’i nazar, ular madaniy va siyosiy ong darajasining turli bosqichida turishlarini va talqin va tahlillar ham shunga mos bo‘lishini esdan chiqarmaslik kerak.

Bugungi kunda tarqatayotgan kundalik axborotlari Vatanimiz bilan xorij mamlakatlarni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tayotgan “Jahon” axborot agentligi O‘zbekistonning jahon axborot bozoridan o‘ziga mos o‘rinni egallashi, respublika hayoti haqida xolis axborotni dunyoga tezkor tarqatish tizimini yaratish, aholining jahon miqyosidagi axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini yanada to‘laroq qondirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Xalqaro ommaviy axborot vositalari siyosiy voqealar bilan bir qatorda O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati, xorijiy sarmoyani jalb qilish borasidagi sa’y-harakatlarini ham alohida e’tibor bilan tilga oladilar. Osiyo va Yevropa chorrahasida joylashgan strategik joylashuvi, mo‘l-ko‘l tabiiy resurslari, jadal sur’atda o‘sib borayotgan aholisi bilan O‘zbekiston biznes va sarmoya uchun mos hudud sifatida e’tirof etiladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, infratuzilma loyihalari, biznes uchun qulay muhit yaratish borasidagi sa’y-harakatlarni o‘rganishga rag‘batlantiradi. Shu bilan birga xalqaro ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonning boy madaniy merosi va uning salohiyatini sayyohlik maskani sifatida e’tirof etadi. Xalqaro ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston haqidagi ko‘plab yoritilishlar ijobiy bo‘lsa-da, korrupsiya, inson huquqlari muammolari va islohotlar sur’ati kabi davom etayotgan muammolarga e’tibor qaratuvchi tanqidiy qarashlar ham yo‘q emas. Nima bo‘lganda ham, xalqaro ommaviy axborot vositalarining diqqati O‘zbekiston va uning mintaqadagi asosiy o‘rni va salohiyati haqida dunyoni xabardor qilish imkoniyatini oshirishga yordam berdi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonning rivojlanayotgan siyosiy manzarasi, iqtisodiy islohotlari, boy madaniy merosi, sayyohlik imkoniyatlari xalqaro ommaviy axborot vositalarining e’tiborini hamisha o‘ziga jalb qilib keladi. Dunyo axborot minbarida O‘zbekiston mavzusini yoritish:

– Birinchidan, mamlakatimiz rivojlanishi va qudrati haqida muhim tushunchalar beradi, shu bilan birga uning jahon miqyosidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

– Ikkinchidan, xalqaro nigohda O‘zbekistonning o‘rni va nufuzini belgilash orqali rivojlanishning yangicha, o‘ziga xos yo‘llarini ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

– Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari diqqat markazini nafaqat siyosiy hayot, balki ijtimoiy soha, xususan, turizm, san’at va madaniyat, sport kabi tarmoqlarga ham faol jalb qilishni ta’minlaydi.

– To‘rtinchidan, butunjahon axborot oqimida O‘zbekistonning ulushini oshirishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Do‘stmuhammad X. Xalqaro jurnalistikada gumanitar huquq va kasb etikasi. – T.: Perfect print, 2011.
2. Qozoqboyev T., Xudoyqulov M. Jurnalistika asoslari. – Toshkent, 2009, 384 b.
3. https://diplomatmagazine.eu/2021/06/30/uzbekistans-strategy-for-building-greater-trans-regional-connectivity/
4. http://isrs.uz/oz/ozbekiston-va-mo-oav-nigohida
5. www.gazeta.uz

XIVA XONLIGINING XIX ASRDAGI TASHQI SIYOSATI

Zoyirov Salohiddin Toshturdiyevich
Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: XVII – XIX asr va XX asr boshlarida Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Xiva xonligining Buxoro, Qo‘qon xonliklari, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan bo‘lgan diplomatik munosabatlari tarixiga oid ayrim tafsilotlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: XVI-XIX asr, Xorazm, Buxoro, A.A. Semyonov, Nasrulloxon, Rahimqulixon, kenagas, Marv, Muhammad Aminxon, qo‘ng‘irotlar, Eltuzar, Amir Xaydar, Muhammad Rahimxon I, elchi, Jeyms Abbot, Olloqulixon, N.P.Ignatev, 1858 yil 15 may, Orenburg, Ustyurt.

Аннотация: В исторических трудах, написанных в Хорезме в 17-19 веках и начале 20 века, освещены некоторые подробности истории дипломатических отношений Хивинского ханства с Бухарой, Кокандским ханством, Россией и другими странами.

Ключевые слова: XVI-XIX вв., Хорезм, Бухара, А.А. Семенов, Насрулла-хан, Рахимкулихан, кенагас, Марв, Мухаммад Аминхан, колокольчики, Эльтузар, Амир Хайдар, Мухаммад Рахимхан I, посол, Джеймс Эббот, Оллокулихан, Н. П. Игнатьев, 15 мая 1858 года, Оренбург, Устюрт.

Annotation: In this article based on written sources enlightened some details of the history of embassy missions between the Khivan and the Kokand khanates in the 19th century.

Keywords: XVI-XIX centuries, Khorezm, Bukhara, A.A. Semyonov, Nasrullah Khan, Rahimqulikhan, kenagas, Marv, Muhammad Aminkhan, bells, Eltuzar, Amir Haidar, Muhammad Rahimkhan I, ambassador, James Abbot, Olloqulikhan, N.P. Ignatev, May 15, 1858, Orenburg, Ustyurt.

XVII – XIX asr va XX asr boshlarida Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Xiva xonligining Buxoro, Qo‘qon xonliklari, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan bo‘lgan diplomatik munosabatlari tarixiga doir ma’lumotlarni ham ko‘p uchratamiz.

XIX asrdagi Xiva xonligining davlat tuzilishi ham undagi yer egaligi munosabatlari singari yetarlik yaxshi o‘rganilmagan. Tarix fanida Xiva davlatining ma’muriy-siyosiy tuzilishi yaxshi yoritilmaganligini shu faktdan bilish mumkinki, Xiva xonlarining arxivlari topilguncha, hatto mansab egalarining ro‘yxatlari ham noma’lum holda qolib kelgan edi. Bu mansab egalarining vazifalarini tushunish xususiga kelganda: «O‘rta Osiyodagi davlatlarning kundalik hayotida ishlatilgan ma’muriy terminlarning tarjima va izohlari A.A. Semyonov to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tganidek, tarixchilar, sharqshunoslar uchun doim bir to‘g‘anoq bo‘lib kelgan edi»[1].

Shu masalaga doir ilmiy asarlarning butunlay yo‘qligi «O‘zbekiston xalqlari tarixi» mualliflarini Buxoro va Qo‘qon xonliklarining davlat tuzilishi sohasida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni Xivaga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etishga majbur qilgan. Buning natijasida Xiva xonligining davlat tuzilishi yoritilishi bir yoqda tursin, balki buzib, chalkash qilib yuborilgan va qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilgan.

Shuni afsus bilan ta’kidlash lozimki, tarixiy asarlarda xonlarning bir-birlariga elchilar vositasida yo‘llagan xatlarining matnini ham, mazmun-mundarajasini ham keltirish urf bo‘lmagan. Respublika Markaziy Arxividan Buxoro amiri Nasrulloxonning Rahimqulixonga yo‘llagan jovob maktubi topildi. Maktub fors tilida yozilgan (Buxoro amirligida devonxona fors-tojik tilida ish yuritgan). Maktubning tarjimasi quyidagicha:

Muhtaram Rahimqulixon!

Oliyjoh, yuksak maqomli, amorat va ayolat panohi, izzatu yuksaklik qo‘lida bo‘lgan, hukumat va manzilatdan ogoh, loyiq yo‘lboshchi, jalolat va ulug‘lik maqomida saromat va peshqadam (Rahmonqulixon)ga xayrli so‘zlar adosidin so‘ng zamiru xotirlariga ma’lum bo‘lsunkim, alhamdulilloh, ahvollar tinchlik va xurramlik bilan kechmoqda. Malollik va ko‘ngilsizliklar yo‘q. So‘ngra yashrin qolmasinkim, kenagas (urug‘i) haddidan oshmoqda edi, shuning uchun ot solib, unga tanbeh berib qo‘ydik. Yakkabog‘ hamda ularning ba’zi yurtlarini o‘zimizning qahrli tasarrufimizga oldik. O‘zlarining noto‘g‘ri ishlaridan nadomatda va pushaymon bo‘ldilar. Mehribonlik yuzasidan va saxovat yuzidan jarima (tovon)larini avf qilib, poytaxt Buxoroga qaytdik.

Fotihaxonlik uchun yuborilgan fazlu jang peshvolari Mullo Rahmonberdi mudarris va Rahmatullo mahramni hursandlik va hamjixatlik bilan qabul qildik. Fotiha va duo qildilar. Biz ham ko‘p xursand bo‘ldik. Mazkur ikkoviga aytib yuborgan so‘zlaringizni eshitdik va bizdan ham har ne so‘zimiz bo‘lsa, tingladilar. Amorat va fazliyat ahlidan Husaynxon biy va Mullo Sayyid Olimni hamroh qilib yubordik. Tokim, duoi fotiha o‘qib, Siz janoblaringizning suhbatu salomatliklarini ko‘rib kelgaylar. Assalomu alaykum. Jamodiu – s – soniy oyida yozildi, 1261[1].

Maktubda ko‘rsatilgan 1261 hijriy sana 1846 yilga muvofiq keladi. Rahimqulixon esa ushbu maktubni olgach, sakkiz oy keyin mamlakatning shimoliy hududi bo‘lgan Akbar qal’a yonida vafot etadi. Demak, Rahimqulixon vafotidan keyin qaytib kelgan Rahmatullo xalifa ayni shu elchilarga yana hamrohlik bilan Buxoroga yuborilgan. Chunki xonlarning barcha siyosiy masalalarini maktubda bayon qilavermaganlarini ushbu rasmiy yozishma ham tasdiqlab turibdi.

Shuni alohida takidlash joizki Buxoro bilan Xiva o‘rtasida Muhammad Aminxon davrida Marv(Mari) ziddiyatlarga sabab bo‘lgan hudud edi. Lekin shunday bo‘lsa ham Buxoro amirligi bilan diplomatik munosabatlar bir maromda davom etadi. Jumladan,

[1] O‘zbekiston Milliy arxivi I – 125- jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 220 – ish, 1-varaq.

ushbu maktub ham Xiva xonlari arxivida saqlangan bo‘lib unda, shunday deyiladi: “... so‘ngra yashrin qolmasinkim, sadoqatli Rahmatullo mahramdan yuborgan maktubingiz yetib keldi. Uning mazmun – mundarajasini anglab tingladik. Mazkur mahramga ruxsat ekanmiz, aqida va jang ahlidan Bek miroxo‘rni mahram qilib yubordik. Boshqa neki so‘z bo‘lsa, shul ikkoviga ta’yin qilib yubordik, borib aytgaylar. So‘zlarimiz ayni sidqdur. Yana assalomu alaykum. 1264”[2].

Bundan tashqari, garchi Xivaga kelib ketgan ajnabiylarning maktublarida va turli-tuman asarlarida ko‘pgina qimmatli materiallar bo‘lsada, biroq ular tartibga solinmagan hamda materiallar ajnabiylarning ishlari tushgan mansabdor shaxslar, ya’ni xonga va saroy a’yonlariga taalluqli ma’lumotlardir.

XVIII asrning 60 yillaridan boshlab Xiva xonligida yuzaga kelgan siyosiy vaziyat hokimiyatni Xiva qo‘ng‘irotlari tomonidan qo‘lga olinishi uchun yo‘l ochib berdi. Ko‘p sonli qabila va urug‘larning boshliqlari madadiga tayangan Muhammad Amin inoq 1770 yilda turkmanlar qo‘zgolonlarini bostirib, xonlikda birmuncha osoyishtalik o‘rnatishga erishdi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida hokimiyat amalda qo‘ng‘irotlar qo‘liga o‘ta boshladi. Rasmiy hokimiyat esa chetdan chaqirilgan qozoq sultonlari qo‘liga topshirib qo‘yilgan va Muhammad Amin ham uning o‘gli Avaz ham (1790 – 1804) inoq unvonida davlatni boshqarib kelgan edilar. Bu mavqe inoqlardan Eltuzargacha davom etdi va Muhammad Amin inoqning nabirasi bo‘lgan Eltuzar 1804 yilda hokimiyatga erishgach, qozoq sultonlaridan bo‘lgan soxta xon Abulgozini taxtdan tushirib, o‘zi rasman xon unvonida Xiva hukmdori bo‘lib qoldi (1804 – 1806). Shu tariqa 1804 yildan boshlab Xiva xonligi taxti rasman Xiva qo‘ng‘irot qo‘liga o‘tdi.

Eltuzarxon o‘z hukmronligi yillarida Xiva xonligining barcha hududlarini birlashtirishga va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga harakat qildi. Biroq u 1806 yilda Buxoro amirligi qo‘shinlari bilan bo‘lgan janglardan birida halok bo‘ldi. Taxtga Xiva qo‘ng‘irotlarining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan, Eltuzarxonning ukasi Muhammad Rahim I o‘tirdi (1806 – 1825). Muhammad Rahimxon taxtga chiqishi bilan avvalgi soxta xon Abulg‘ozi mavqeini tikladi va shu yo‘l bilan o‘z nufuzini oshirishga harakat qildi. Muhammad Rahimxon hukmronlik qilgan davr Xiva xonligida siyosiy keskinliklar bilan davom etdi. U shafqatsiz kurash olib borishi yo‘li bilan Xiva xonligini birlashtirish va xonlik hududlarini kengaytirishga harakat qildi. Shu bilan bir qatorda urush sababli Buxoro bilan uzilgan munosabatni tiklashga urindi. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabat Amir Xaydarning o‘g‘ilning to‘yi bahonasida tiklandi deb ta’kidlagan Bayoniy o‘z asarida. Buxoro amiri bilan diplomatik aloqani mustahkamlab olgach, Muhammad Rahimxon I qozoq yerlarini bosib olishga kirishdi.

Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirilib nisbiy barqarorlik ta’minlangan bo‘lsa-da, taxt boshqaruvining so‘ngi yillarida tashqi siyosatda Rossiya bilan munosabatlar keskinlashdi.

[2] O‘zbekiston Milliy arxivi I – 125- jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 220 – ish, 2-varaq.

Davlat boshqaruvini mustahkamlash borasida ham ma’lum ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, ma’muriy tartibda devon joriy qildi, mamlakat iqtisodiy hayotini yo‘lga qo‘yish maqsadida soliq islohoti o‘tkazdi, muntazam soliqlar yigib olish bilan davlat xazinasini boyitdi, iqtisodiy sohani yanada mustahkamlash maqsadida bojxona va zarbxona tashkil etdi va oltin hamda kumush zarb qildira boshladi[1].

Markaziy hokimiyatni birmuncha mustahkamlashga erishgan Muhammad Rahimxon asta-sekin mayda bekliklarni ham bo‘ysundirish siyosatini olib bordi. Qattiq kurashlardan so‘ng 1811 yilda Orol bo‘ylarida yashovchi urug‘larni xonlikka bo‘ysundirdi. Qo‘ng‘irot shahri vayron qilindi va XIX asr boshlarida qoraqalpoqlar bo‘ysundirildi.

Muhammad Rahimxon turkmanlarni itoatda tutib turish uchun turli siyosatlarni yuritardi, goh ularni Eron bilan urushga jalb qilib kuchsizlantirsa, goh o‘zi harbiy yurishlar qilib ularni asirlarga olardi, gohida esa turli qabilalarga galla va boshqalar sotib olishdi imtiyozlar berardi. Muhammad Rahimxon Sirdaryo bo‘ylarida yashovchi qozoqlarni ham o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qildi, biroq ruslar bu vaqtda qozoqlarni o‘z tobeliklarga olgan edilar. Eron va Afgoniston bilan munosabatlar bu davrda nisbatan mo‘tadillashdi.

Muhammad Rahimxon hukmronligi yillarida Rossiya imperiyasi Xiva xonligi bilan ayrim munosabatlarni o‘rnatishga harakat qildi. 1819 yilda kapitan Muravev boshchiligidagi elchilar Kaspiy dengizi sohillarda qal’a qurish va Xiva karvonlarini Mangishloqqa emas, balki Krasnovodsk portiga yo‘llash masalasida Xiva xonligiga keldi. Biroq Muhammad Rahimxon bunga ko‘nmadi. Hukmronligining oxirgi davrlarida 1822 yilda Muhammad Rahimxon Marvni o‘ziga bo‘ysundirdi[1].

Muhammad Rahimxon vafotidan so‘ng Xiva xonligi taxtiga uning o‘gli Olloqulixon (1825 – 1842) chiqdi. Olloqulixon otasi davrida qo‘lga kiritilgan yutiqlarni saqlab qola bilishi, ularni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim edi. Uning xonlik yillarida O‘rta Sharqda Angliya-Rossiya o‘rtasida mustamlakachilik uchun kurash keskin tus oldi. Bunday bir sharoitda Xiva xonligi butunligini va mustaqilligini saqlab qolish, unga nisbatan janub va shimoldan turli bahonalarni rukach qilgan holda pinxona va oshkora tazyiq, ba’zida esa ochiq agressiyaga (general Perovskiy harbiy yurishi) qarshi hozirlik ko‘rish, ana shu murakkab halqaro sharoitga mos keladigan tashqi siyosat yuritishdek vazifa turardi.

Xonlikda ingliz razvedkasi ham faoliyat boshladi. Chunonchi, 1840 - yilda Xivaga kapitan Jeyms Abbot keldi va u Olloqulixon bilan uchrashdi. Abbot Xiva xonini Rossiyaga qarshi harbiy istehkomlar qurishga davat etdi. U bunday istehkomlar qurilishi mumkin bo‘lgan joylarni aniqlash bo‘yicha ish olib borayotgan paytda Rossiya harbiylari tomonidan asir olindi va Peterburgga jo‘natildi va ko‘p o‘tmasdan

[1] O‘zbekiston Milliy arxivi I – 125- jamg‘arma, 12-ro‘yxat, 476 – ish, 3 –orqa varaq.
[1] O‘zbekiston Milliy arxivi I – 125- jamg‘arma, 12-ro‘yxat, 476 – ish, 3 –orqa varaq.

Londonga yuborildi. Shu tariqa Buyuk Britaniya razvedkasi Xiva va Rossiya o‘rtasida harbiy harakatlar keltirib chiqarishdek maqsadiga erisha olmadi.

Olloqulixon hukmronligi davri o‘zaro urushlarga va to‘qnashuvlarga boy va shiddatli bo‘ldi. Xonlikning shimolida yashovchi yarim ko‘chmanchi turkman qabilalaridan taka, sariq, salor va boshqalar kuchayib ketdi. Bu esa xonlikning ichki siyosiy ahvoli keskinlashuviga olib keldi. Bundan tashqari xon deyarli har yili Xurosonga yurishlar uyushtirdi, turli talonchiliklardan tashqari Olloqulixonning o‘zi Xurosonga 5 marta yurish qilgan edi.

Olloqulixondan so‘ng taxtga o‘tirgan Muhammad Aminxon (1845 – 1855) ham Xuroson va Marvga 10 martadan ko‘p yurish qildi. Saraxsni qamal qilishda qatnashgan xonning o‘zi ham shu jangda halok bo‘lgan edi.

Muhammad Aminxondan keyin taxtga chiqqan Said Muhammadxon davrida esa Rossiya polkovnik N.P.Ignatev boshchiligida xonlikka o‘z missiyasini yuborgan. Bu missiya 1858 yil 15 mayda Orenburgdan Ustyurt orqali Xiva va Buxoroga jo‘natildi.

Xiva xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasida bu davrda ham o‘zaro dushmanlik va raqobat kayfiyati saqlanib qolgan edi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Muhammad Rahimxon hukmronligi yillarida birmuncha siyosiy va iqtisodiy jihatdan mavqei mustahkamlangan Xiva xonligi keyingi xonlar hukmronligi davrida ichki hamda tashqi urushlar va kurashlar girdobida qoldi. Bu esa o‘z navbatida chor Rossiyasi bosqini arafasida xonlikning siyosiy va harbiy jihatdan zaiflashuviga olib kelgan edi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki Xivani bosib olishdan Rossiya xonlikka bir necha o‘n yillardan boshlab o‘zining harbiy elchilik ekspeditsiyasini yuborgan. Xiva xoni Rossiya bosqinini to‘xtatish uchun bir necha bor urinib ko‘rdi ammo buning uddasidan chiqa olmadi. Eng muhimi, O‘rta Osiyo xonliklari g‘arbdan xavf solib kelayotgan bosqinchilarga qarshi birlasha olmadilar.

Bu davrda Angliya bilan Turkiya hamkorlikda O‘rta Osiyo davlatlarining harbiy ittifoqini vujudga keltirishga ko‘p uringan bo‘lsa-da, Turkiya ham, Angliya ham, Rossiya xurujiga qarshi xonliklarni birlashtirishning uddasidan chiqa olmadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matniyozov M. Xiva xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy–siyosiy hayotida tutgan o‘rni va roli (XIX asr – XX asr boshlarida). 2-nashr. – Urganch, 2004.

2. Polvonov N.T. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi. (1900 - 1924). -T., 2005.

3. Ogahiy. Tanlangan asarlar. 5-jild.- T., 1978.

4. Sazonova M.V. Zemelnыe otnosheniya v Xivinskom xanstve v XIX v. – M., 1967.

5. Tabibiy A. Tavorixi al – xavonin. – T.: “Akademiya”, 2002.
6. O‘zbekistonning yangi tarixi 1-kitob. - T.: Sharq. 2000.
7. O‘zbekiston SSR tarixi. III tom. -T., 1971
8. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari.-T., Sharq. 2001.
9. Xiva davlat hujjatlari.-T.: O‘z FA nashriyoti, 1960. -23 b.
10. Eshmuradov M.J. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi.- T., 2011.

PEDAGOG SHAXSIDA QADRIYATLI MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

D. Abdullayeva
NamDPI 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: bu maqolada, pedagog shaxsida qadriyatli munosabatlarni shakllantirishda psixologik xususiyatlar, masalan,pedagogning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda uning o‘quvchilarga nisbatan hurmati, emotsiyasi, motivatsiyasi, sabrliligi, faolligi va tashqi qarashlarga ega bo‘lishi orqali pedagogik jarayondagi ta'lim tarbiya samaradorligini oshirish kabi mavzular bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot strategiyasi, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, individual-psixologik xususiyatlari, qadriyat, ekotizim, motivatsiya, empatiya, konstruktiv, halollik.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF VALUABLE RELATIONSHIPS IN THE PERSONALITY OF A TEACHER

Annotation: in this article, psychological features in the formation of valuable relationships in the personality of the pedagogue, for example, along with the intellectual development of the pedagogue, as well as increasing the effectiveness of education and upbringing in the pedagogical process by having respect for students, emotion, motivation, patience, activity and external views topics are described.

Key words: development strategy, national personnel training program, individual-psychological characteristics, Value, Ecosystem, motivation, empathy, constructive, honesty.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА

Аннотация: в данной статье рассматриваются психологические особенности формирования ценностных отношений в личности педагога, например, наряду с интеллектуальным развитием педагога, а также повышение эффективности обучения и воспитания в педагогическом процессе за счет уважения к ученикам. Описаны темы эмоций, мотивации, терпения, активности и внешнего взгляда.

Ключевые слова: стратегия развития, национальная программа подготовки кадров, индивидуально-психологические характеристики, Ценность, Экосистема, мотивация, эмпатия, конструктив, честность.

Bugungi kunda mamlakatimizda talim tarbiyaga alohida etibor qaratilmoqda. Buning isboti sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga binoan ishlab chiqilgan 2022-2026 yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning to’rtinchi va beshinchi boblari alohida ta’lim tarbiya masalalari, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ma’naviy taraqqiyot va inson manfaatlarini rivojlantirishga qaratilganligi mamlakatimizda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri ekanligi ko’rsatadi.[1]. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son qarorida tasdiqlangan va yangi tahrirdan chiqqan kadrlar tayyorlash milliy dasturida pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. [2].

Pedagogik jarayondagi ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish uchun o’qitish sifatini tubdan yangilash, o’qituvchi va o’quvchining hamkorlikdagi munosabatini yo’lga qo’yish, o’zaro sog’lom raqobat muhitini qaror toptirish va yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etishimiz zarurdir. Zamonaviy ta’lim tizimi har bir pedagogdan juda katta kasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishni, o’qitishning eng ilg’or texnologiyalarini o’zlashtirishni, fanning so’nggi yutuqlaridan xabardor bo’lishni, o’quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish malakasiga ega bo’lishni taqozo etmoqda. Pedagog shaxsida qadriyatli munosabatlarni shakllantirish ularning ta'lim ekotizimidagi rolining hal qiluvchi jihati hisoblanadi. [3]. O'z talabalari bilan mazmunli aloqalarni o'rnatishni birinchi o'ringa qo'yadigan o'qituvchilar talabalarning o'rganish tajribasi va umumiy farovonligiga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin.

V.A.Slastyonining fikriga ko‘ra, "Pedagogik faoliyatga doir qadriyatlarning interiorizatsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatiga tamal toshini qo‘yadi. O‘qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma‘naviy qadriyatlar almashinuvida kasbiy yo‘nalishlari tizimini hosil qiladi.[4]

O'qituvchi va uning talabalari o'rtasidagi munosabatlar o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, akademik va hissiy rivojlanishga chuqur ta'sir qiladi. Talabalar bilan qadriyatli munosabatlarni o'rnatish o'qituvchi shaxsidagi psixologik xususiyatlarning murakkab o'zaro ta'sirini talab qiladi. Ushbu xususiyatlarni tushunish orqali o'qituvchilar o'z o'quvchilari bilan ijobiy va mazmunli aloqalarni o'rnatishlari mumkin, natijada ta'lim tajribasini oshiradilar.Ta‘lim tizimida qadriyatli munosabatlar tizimini rivojlantirish ijobiy va samarali ta'lim muhitini yaratish uchun zarurdir.[5]. Pedagoglar yoki o'qituvchilar o'z o'quvchilari bilan mazmunli aloqa o'rnatishni birinchi o'ringa qo'yishsa, bu o'qitish va o'rganish tajribasini sezilarli darajada oshirishi

mumkin. O‘quvchilarda keng dunyoqarash, yuksak ma'naviyat, erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish lozim. Bu o‘zini anglab yetish, faoliyat jarayonida o‘zini anglashga va o‘rganishga yo‘naltiradi.

Pedagog shaxsida qadriyatli munosabatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari o'zgaruvchan va murakkabdir. Har bir pedagogning psixologik xususiyatlari orasida:

-o‘quvchilar orasida hurmat va ishonchga sazovor bo‘lishi kerak. O‘quvchilar o‘z pedagoglarga ishonib hurmat qilsalar, o‘z fikrlarini bildirishda to‘siqlar vujudga kelmaydi va sog‘lom muloqot muhiti yaratiladi;

- har bir o‘quvchini o‘ziga xos ehtiyojlari, o‘rganish uslublari va qiziqishlarini tushunishi pedagogning o‘quvchi talabalarga mavzuni chuqurroq tushuntira olishiga yordam beradi;

- ta‘lim jarayoni davomida pedagogning talabalar bilan ijobiy munosabatda bo‘lishi o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasining oshishiga olib kelishi mumkin. Talabalar o‘z pedagoglari bilan bog‘langanligini his qilsalar, ular darsda faol ishtirok etishlari, savollar berishlari va o‘z bilimlarini egallashlari mumkin;

-Pedagogning motivatsiyaliligi o‘quvchilarni ko'plab ta'sirchan usullar bilan ilgari surish va ularning o'zlarini rivojlantirishga yordam berishiga yo‘l ochadi;

-Pedagogning o'quvchilarga hissiy yordam ko‘rsatishi, talabalarga o'zlashtirish jarayonida ularni qo'llab-quvvatlashi, ularning shaxsiy muammolarini hal qilishda yordam berishi va yanada qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratishi mumkin;

- o‘z o‘quvchilarini faol tinglashlari, konstruktiv fikr-mulohazalarini bildirishlari va sinfda muloqotni rag‘batlantirishlari kerak.

-ijobiy xulq-atvor va qadriyatlardan namuna oladigan pedagoglar o‘z talabalariga ta‘sir qiladilar. Pedagoglar halollik, mehribonlik, bilim olishga ishtiyoq kabi fazilatlarni namoyon etish orqali o‘quvchilarning shaxsiy va ilmiy rivojlanishiga doimiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

-sabr-toqatli o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining ehtiyoj va muammolarini xotirjamlik va tushunish bilan hal qila oladilar. Sabr-toqat o‘qituvchilarga qiyinchiliklar oldida xotirjam bo‘lishga imkon beradi va shu bilan o‘z o‘quvchilariga nisbatan ochiq munosabatda bo‘ladi. Bu xususiyat o‘qituvchilarga o‘quvchilarni o‘rganish yo‘lida qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi;

Ta'limiy qadriyatlardan pedagogika oliy o‘quv yurtlari hamda pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarida ulardan foydalanish o‘qituvchiga jamiyatdagi o‘z o‘rni va mavqeini aniqlash layoqati, ijtimoiy faollik, tajriba, ijtimoiy mas‘uliyat, jamiyatda o‘zini tutishi va huquqiy madaniyat kabi sifatlarning shakllanishiga imkon beradi. Ta'limiy qadriyatlar mazmunida shaxsiy-individual xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Ana shu xususiyatlarga tayangan holda oliy

o‘quv yurtlari hamda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ulardan o‘rinli hamda maqsadga muvofiq foydalanish taqozo etiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogning qadriyatli munosabatlar shakllantirishdagi roli bugungi kunda dolzarbdir, chunki u bilimdon va izlanuvchan shaxslarning rivojlanishiga bevosita hissa qo’shadi. Yosh avlod tarbiyalashda pedagoglarning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishlari, o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasliklari, o‘quvchilarda keng dunyoqarash, yuksak ma'naviyat, erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirishlari,yuzaga kelgan muammoni mustaqil yechishga o‘rgatishi, o‘quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o‘zining kimligini namoyish etishiga yordam berishlari bilan bir qatorda ta‘lim jarayonida qadriyatli munosabatlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olishlari orqali o‘quvchi va talabalarning o‘zlashtirish darajasini yuqorilashuviga yordam beradi.Bu bilan birga ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda pedagogning o'quvchilarni tushunish, ular bilan ishlash, ularni ilgari surish va ularni o'zlashtirish jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogning sabrli, empatik, motivatsiyali va tashqi qarashlarga ega bo'lishi uning o'quvchilarni o'zlashtirish va ulgurish jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” Farmoni. T.: 2022.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydadagi PF 134-sonlu qarori bilan tasdiqlangan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning yangi tahriri
3. Ishmatov K. Pedagogik texnologiyalarni nazariy asoslari. Ta’lim muammolari, Toshkent.: 1999
4. Sh.Mardonov. Pedagogik aksiologiya. Toshkent.:2013
5. B.M.Umarov. Psixologiya. “Voris-nashriyot”. T.: 2012.

YENGIL ATLETIKACHILARNING PSIXOLOGIK PEDAGOGIK MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH

Fozilov Ilxomjon Tursunalievich
Farg‘ona davlat universiteti Sirtqi bo’limi
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yengil-atletika sport turining o‘rni va vazifalari, yengil-atletika bilan shug‘ullanuvchilarning psihologik-pedagogik mahoratlarini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya nazariyasi, yengil-atletika nazariyasi,sport trenirovkasi, salomatlik, sport, sog‘lom avlod tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya tizimi.

Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish kishini sog‘lom bo‘lishga olib kelsa, sport bilan shug‘ullanish kishini jismoniy sifatlarini oshiradi va yuqori natijalar ko‘rsatishga olib keladi hamda bo‘sh vaqtini foydali mashg‘ulotlarga sarf qiladi. Ana shunday sport turlaridan biri yengil-atletikaidir. Yengil-atletika sport turi sifatida O‘zbekistonga XX-asrning boshlarida kirib keldi.[1.3.4]

Yengil-atletikaning hozirgi kundagi rivojlanishi nafaqat mamlakatimizda, chet mamlakatlarda ham ancha yuqoridir. Respublikamizda, chet mamlakatlarda yengil-atletika bo‘yicha yirik musobaqalar o‘tkazilmoqda. Ana shunday musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish, texnik va taktik jihatlarni malakali murabbiylar yordamida o‘zlashtirishi sportchining yuqori natijalar ko‘rsatishiga olib keladi. Ammo yengil-atletikachilar uchun texnik va taktik holatlarini o‘zi kamlik qilmasmikan?

Sportchi uchun psihologik tayyorgarlik albatta muhimdir. Musobaqalashuv jarayonida sportchilarni ruhiy tayyorgarlik darajasi pand berganligi sababli, imkoniyatlari chegaralanib qoladi va natijada mag‘lubiyat alamidan tatib ko‘rishga majbur bo‘ladi. Yengil-atletikachilarda jismoniy tayyorgarlik bilan birga kuch, chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarini oshirib borib, ularning ma’naviy va irodaviy sifatlari hamda maxsus ruhiy imkoniyatlarini takomillashtirish lozim. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash jismoniy tarbiya jarayoni deb qaraladi. Jismoniy sifatlarni tarbiyalashda; Masalan yengil-atletikachi mashqlarni ko’p marotaba texnik o’zlashtirish maqsadida takrorlayversa, shu vaqtning o‘zida ham kuch, ham chidamlilik va tezkorlik kabi jismoniy sifatlari tarbiyalanadi. Yugurish mashqlarini bajarish jarayonida o‘ta tez harakat yaxshi natija beradi. Uudurishni o‘rganish jarayonida oladigan charchoqlariga qaramasdan ma’lum bir me’yorda shug‘ullanishni davom yettirish natijasida chidamlilik sifati oshadi. Shunindek engil atketika mashlarini bajarishi jarayonida egilib bajariladigan mashqlar va maxsus egilib

bajariladigan mashqlar egiluvchanlikni oshiradi. Bu yengil-atletikachi uchun muhim jarayondir.[2.5.6.11]

Psixologik tayyorgarlik. Sport turlarining o‘ziga hosligi yoki sport turining alohida bo‘limlari, sportchilar psixikasiga qo‘yiladigan talablarga o‘z izlarini qoldiradi. Yengil-atletika bilan shug‘ullanadigan kishilarda g‘alaba uchun kerakli paytda bor kuchini berish va bor kuchini to‘play bilish kabi sifatlar harakterlidir. Agar yengil-atletikachilarda ishonchsizlik mavjud bo’lar ekan, demak tavakkal qilishga majbur bo‘ladi. Buning natijasi hamma vaqt ham samara bera olmaydi. Sportchilarni psihologik tayyorlash ularning ruhiy holatini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Masalan: sportchiga raqibi haqida, jismoniy holati, kuchi, harakteri to‘g‘risida ma’lumotlar berish. [7.8.9]

1. Raqibiga nisbatan sportchini g‘alaba qilishga ishonchini his qilishi; bunda sportchi o‘rgangan usullarni samara berishi va ular ustida tinimsiz mashg‘ulot olib borganligini his qilishi, buning natijasida qulay vaziyatda bajaradigan usuli natija berishiga ishonch hosil qilish kerak bo‘ladi.
2. Sportchini mashg‘ulotlaridagi aktiv harakatlari, mashg‘ulotlaridagi natijalari va musobaqalarda erishib qolgan yutuqlarini eslatib ruhan tetiklashtirish.
3. Ruhiy tayyorgarlik jarayonida sportchilarni o‘z holatlarini, sezgilarni to‘g‘ri baholashga va ularni harakatining funsional imkoniyatlari bilan bog‘lashga o‘rgatish zarur.
4. Mushaklarni to‘la va tez bo‘shashtira olish sportchiga musobaqa jarayonida o‘z imkoniyatlaridan to‘la foydalana olishiga yordam beradi. Mushaklarni samarador bo‘shashtirish, sportchi o‘z diqqatini bir zumda to‘play olishi uchun va juda qiyin sharoitlarda yuqori samarali harakatlarni bajarish uchun sharoit tug‘diradi.[12.18.13.15]
5. Sportchini butun fikrini musobaqa jarayoniga qarata bilish, fikrini bir joyga to‘plash.

Ko‘pgina sportchilarning musobaqalardagi sustkashligi yoki muvaffaqiyasizligi ularni haddan tashqari hayajonlanganligidan kelib chiqadi. Musobaqadagi ishonchsizligi harakatlarni oxirigacha bajarmaslikka olib keladi.

Sportchilarning ruhiy tayyorgarligini oshirish ularning harakteriga ham bog‘liq. Bu jarayonlarni amalga oshirish malakali va tajribali ustoz murabbiylarning ish uslublariga ham bog‘liqdir.

Ba’zi holatlarda murabbiylarning shogirdlariga nisbatan ruhiyatini ko‘tarish uchun qo‘llaydigan bir necha usullarni kuzatishimiz mumkin:

-Ma’naviy va irodaviy tayyorgarligini oshirish.

-Diqqatini bir joyga to‘plash.

-Maqsadga intilish.

-G‘alabaga ishonchini uyg‘otish

-Raqibiga imkoniyat qoldirmasdan harakat qilishga undash.

-Charchaganda ham ildamlik bilan musobaqani davom ettirishga undash.

-O‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatish.

-Raqibiga befarq bo‘lmasligini eslatish. Bularning barchasi g‘alabaga olib keladigan omillardir.[19.21.20]

Xulosa.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

- “Yengil-atletika” tushunchasi, atamalari har bir millatning tili tarkibida tarixan shakllanib, rivojlanib kelmoqda;
- “Jismoniy madaniyat” sohasidagi tushuncha va atamalarini o‘zbek tilshunosligining muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishi deb belgilash;
- “Jismoniy madaniyat” sohasining tushuncha va atamalarini, aholining kundalik hayotiga chuqur singdirishda, ularning bilimlarini chuqurlashtirish orqali jismoniy harakat amallari bilan astoydil mashg‘ul bo‘lishlarida asosiy omillardan biridir. Bu borada ta’lim muassasalaridagi jismoniy madaniyat fanini o‘qitishdagi ta’lim jarayonlari yetakchi omillardan biridir. Shuning uchun soha bo‘yicha turli xil lug‘atlar, izohli lug‘atlarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YENGIL ATLETIKA TURLARINI O‘RGATISH A.Normurodov. Toshkent – 2021

2. YEN GIL ATLETIKA ROPIJON QUDRATOV Noshir» nashriyoti, 20l2-y.

3. YENGIL ATLETIKA TURLARINI O‘QITISH USLUBIYATI *RAFIYEV HAMROQUL TOLIBOVICH Toshkent 2021yil.*

4. Yormatov, G. (2022). STOL TENNIS BILAN SHUG ‘ULLANUVCHILARNING PSIHOLOGIK PEDAGOGIK MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Ta’lim fidoyilari*, *8*, 167-171.

5.Атамухамедова, М., Абдугаппаров, А., Михеева, А., & Ёрматов, Г. ВЛИЯНИЕ УМСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НА ГАЗООБМЕН В РАЗЛИЧНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ. *СИМВОЛ НАУКИ*, 81.

6. Sattorovich, Y. G. (2021). SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS OF INTEGRATION OF PHYSICAL AND CULTURAL-MORAL EDUCATION. *Thematics Journal of Education*.

7. Atamukhamedova, M. R., Yormatov, G. S., & Erkaev, E. A. (2019). Relations between basic exchange and sprint. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(10), 304-308.

8. Yormatov, G. S. (2021). Socio-Pedagogical factors of integration of physical and cultural-moral education. *TJE-Tematics journal of Education*, *ISSN*, 2249-9822.

9. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). Mass Sport Movement in Uzbekistan and its Role in Forming a Healthy Lifestyle. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 334-337.

10. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). History of the Sport of Kurash. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 329-333.

11. Yormatov, G. S. (2020). CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXERCISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133.

12. Tursunalievich, F. I. (2022). Movement of children on the basis of the means of optimal daily physical activity and their training. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 744-750.

13. G'ulomjon, Y. (2023). Metho Yormatov, GS (2020). *CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXERCISES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133

14. G'ulomjon, Y. (2023). THE MORAL OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION IN YOUNG CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1155- 1161.

15.Tursunaliyevich, F. I., & Omonboyvich, T. S. (2022). BASKETBOLChILAR SPORT TRENIROVKASINING ASOSLARI. *Ta'lim fidoyilari*, *8*, 91-96.

16. G'ulomjon, Y. (2023). MEDICAL BIOLOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF THE MOST HIGHLY QUALIFIED SPORES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1169-1175.

17. G'ulomjon, Y. (2023). Methodological Principles of Development of Physical Quality of Endurance in Children and Adolescents. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 178-182.

18. Yormatov Gulomjon 2022/12/2 FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS NTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH 140-149

19. Gulomjon Y. & Alievich M. R. (2022). METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF HUMAN PHYSICAL QUALITIES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 117-122.

20. Gulomjon, Y. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL ABILITIES OF YOUNG STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 140-149.

21. Ghulom, Y. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 17-25.

22. Gulomjon, Y. (2022). INNOVATIVE IMPROVEMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 119-1

SUZISH USULLARI O‘RGATISHDA TAYYORLOV MASHQLARINING O‘RNI

Fozilov Ilxomjon Tursunalievich
Far**g‘**ona davlat universiteti sirtqi bo‘lim
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi **o‘**qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada suzish sport turiga o’rgatish usullari, suzish usullarini o’rgatishda tayyorlov mashqlarining o’rni, tayyorlov mashqlarining tanlash usullari to’g’risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya nazariyasi, suzish nazariyasi,sport trenirovkasi, salomatlik, sport, sog‘lom avlod tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzi.

Tayyorgarlik mashqlari suzish texnikasini o‘rgatishning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu mashqlar suzuvchining jismoniy tayyorgarligi va ko‘nikmalarini ular suzishni o‘rganishni boshlashdan oldin yaxshilashga qaratilgan. Suzish uchun tayyorgarlik mashqlarini tanlashda bir nechta nazariy fikrlar mavjud:[1.2.6]

1. Aerobik fitnes: Suzish yuqori darajadagi yurak-qon tomir chidamliligini talab qiladi, shuning uchun tayyorgarlik mashqlari aerobik fitnesni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Yugurish, velosipedda yurish va elliptik mashinadan foydalanish kabi mashg‘ulotlar aerobik fitnesni yaxshilashning samarali usullari bo‘lishi mumkin.

2. Kuch va moslashuvchanlik: Suzish ko‘plab mushak guruhlarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi, shuning uchun butun tanada kuch va moslashuvchanlikni rivojlantirish muhimdir. Qarshilik guruhini mashq qilish, yoga va Pilates kabi mashqlar kuch va moslashuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.[4.7.8.9.10]

3. Muvofiqlashtirish va muvozanat: Suzish muvofiqlashtirish va muvozanatni talab qiladi, bu muvozanat mashqlari, chaqqonlik mashqlari va muvofiqlashtirish mashqlari kabi mashqlar orqali rivojlanishi mumkin.

4. Texnik mashqlar: Tayyorgarlik mashqlari, shuningdek, suzish texnikasining o‘ziga xos jihatlariga, masalan, tana holati, nafas olish va zarba texnikasiga qaratilgan mashqlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu mashqlar mushaklar xotirasini rivojlantirishga va umumiy texnikani yaxshilashga yordam beradi.

Tayyorgarlik mashqlarini tanlashda har bir suzuvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatini hisobga olish muhimdir. Tayyorgarlik mashqlari suzuvchining jismoniy tayyorgarligi, mahorati va tajribasi darajasiga moslashtirilishi kerak. Ular, shuningdek, asosiy mashqlardan boshlab, suzuvchining jismoniy tayyorgarligi va mahorat darajasi yaxshilanishi bilan yanada ilg‘or mashqlarga o‘tishlari kerak.[11.16.12.14.]

Suzish - yuqori darajadagi aerobik tayyorgarlikni talab qiladigan yurak-qon tomir faoliyati. Aerobik fitnes - bu yurak, o‘pka va qon aylanish tizimining mashqlar paytida mushaklarga kislorod va ozuqa moddalarini yetkazib berish qobiliyatidir. Shunday qilib, aerobik fitnesni rivojlantirish suzishga tayyorgarlikning muhim qismidir.

Aerobik fitnesni yaxshilash va tanani suzish uchun tayyorlashga yordam beradigan turli xil tayyorgarlik mashqlari mavjud. Mana bir nechta misollar:

1. Yugurish: Yugurish yurak-qon tomir chidamliligini oshirish va suzish uchun zarur bo‘lgan mushaklar chidamliligini oshirishning ajoyib usuli hisoblanadi. Yengil yugurish bilan boshlang va vaqt o‘tishi bilan intensivlik va davomiylikni asta-sekin oshiring.

2. Velosiped haydash: Velosiped - yurak-qon tomir chidamliligini rivojlantirish va oyoq kuchini oshirishning yana bir samarali usuli, bu suzish paytida tepish uchun muhimdir. Statsionar velosipedlar va ochiq havoda velosiped haydash yaxshi tanlovdir.

3. Elliptik mashina: Elliptik mashina bo‘g‘imlarga ortiqcha stress qo‘ymasdan, yurak-qon tomir chidamliligi va oyoq kuchini oshirishga yordam beradigan past ta’sirli kardiomashinadir.[13.15.16.]

4. Intervalli mashg‘ulotlar: Intervalli mashg‘ulotlar yuqori intensivlikdagi mashqlarni past intensivlikdagi mashqlar davrlari bilan almashishni o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi mashg‘ulotlar aerobik fitnesni yaxshilash va chidamlilikni oshirish uchun samarali bo‘lishi mumkin.

5. Suzish mashqlari: Belgilangan masofa yoki vaqt davomida barqaror sur’atni saqlashga qaratilgan suzish mashqlari aerobik jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash bilan birga suzish texnikasini rivojlantirishga yordam beradi.

Suzish uchun tayyorgarlik mashqlari dasturini tuzayotganda asta-sekin boshlash va vaqt o‘tishi bilan mashqlarning intensivligi va davomiyligini bosqichma-bosqich oshirish muhimdir. Bu jarohatlarning oldini olishga yordam beradi va suzuvchining suzish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlaydigan aerobik fitnesning mustahkam poydevorini qurishga qodirligini ta’minlaydi.

Qarshilik chizig‘ini mashq qilish suzuvchilar uchun ayniqsa foydali bo‘lishi mumkin, chunki u suzish harakatlarida qo‘llaniladigan mushaklarni kuchaytirishga yordam beradi, masalan, erkin usulda zarba va ko‘krak zarbasi. Boshqa tomondan, yoga va Pilates moslashuvchanlik va muvozanatni yaxshilashga yordam beradi, bu esa suvda tanani boshqarish va texnikani yaxshilashga olib keladi.[17.18]

Shuni ta’kidlash kerakki, kuch va moslashuvchanlikni mashq qilish suzuvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, har qanday mashg‘ulot dasturi yaxshi muvozanatli bo‘lishi va fitnesning bir sohasini boshqasiga ortiqcha urg‘u bermasligini ta’minlash muhimdir. Misol uchun, kuch-quvvat mashqlariga juda ko‘p e’tibor qaratadigan suzuvchi suzish uchun zarur bo‘lgan yurak-qon tomir chidamliligini e’tiborsiz qoldirishi mumkin. Xuddi shunday, egiluvchanlik mashg‘ulotlariga juda

ko‘p e’tibor qaratadigan suzuvchi mushaklarning chidamliligi va kuchini e’tiborsiz qoldirishi mumkin, bu esa ularning suzish ko‘rsatkichlariga ta’sir qilishi mumkin.[12.14]

Umuman olganda, suzish uchun tayyorgarlik mashqlari dasturiga kuch va moslashuvchanlik mashg‘ulotlarini kiritish suzuvchilarga suzish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlaydigan har tomonlama fitnes asoslarini rivojlantirishga yordam beradi.[20.19.21]

Suzish - yuqori darajadagi muvofiqlashtirish va muvozanatni talab qiladigan sport turi. Qo‘llar, oyoqlar va nafas olish harakatlarini suyuqlik harakati bilan muvofiqlashtirish, ayniqsa yangi boshlanuvchilar uchun qiyin bo‘lishi mumkin. Muvofiqlashtirish va muvozanatni rivojlantirish to‘g‘ri suzish texnikasi va jarohatlarning oldini olish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Please write this complete bibliography year of publication, country of publication American Red Cross. (n.d.). Drowning. Retriyeved from https://www.redcross.org/get-help/how-to-prepare-for-emergenciyes/ types-of-emergenciyes/water-safety/drowning.html

2. Cyenters for Disease Control and Prevention. (2021). Unintentional Drowning: Get the Facts. Retriyeved from

3.Атамухамедова, М., Абдугаппаров, А., Михеева, А., & Ёрматов, Г. ВЛИЯНИЕ УМСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НА ГАЗООБМЕН В РАЗЛИЧНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ. *СИМВОЛ НАУКИ*, 81.

4. Atamukhamedova, M. R., Yormatov, G. S., & Erkaev, E. A. (2019). Relations between basic exchange and sprint. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(10), 304-308.

5. Yormatov, G. S. (2021). Socio-Pedagogical factors of integration of physical and cultural-moral education. *TJE-Tematics journal of Education, ISSN*, 2249-9822.

6. Ilxomjon, F. (2022). NATIONAL SPORTS IN EDUCATING THE PERFECT MAN THE IMPORTANCE OF THE GAME. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(09), 118-122.

7. Ilhomjon, F. (2023). Scientific Description of Table Tennis Racket Evaluation. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 114-118.

8. Yormatov Gulomjon 2022/12/2 FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS NTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH 140-149

9.Ilhomjon, F. (2022). THE MAIN PROVISIONS OF THE SPECIAL-MOTOR TRAINING IN GYMNASTICS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 99-106.

10. Yormatov Gulomjon Sattorovich 10, Oct. -2021 PEDAGOGICAL SKILLS IN THE SPIRITUAL AND MORAL FORMATION OF STUDENTS NOVATEUR PUBLICATIONS INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY [IJIERT] ISSN : 2394-3696 Website: ijiert.org

11G'ulomjon, Y. (2023). Metho Yormatov, GS (2020). *CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXERCISES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133

12 G'ulomjon, Y. (2023). THE MORAL OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION IN YOUNG CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1155- 1161..

13. G'ulomjon, Y. (2023). Methodological Principles of Development of Physical Quality of Endurance in Children and Adolescents. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 178-182.

14. Gulomjon, Y. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL ABILITIES OF YOUNG STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 140-149.

15. Ghulom, Y. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 17-25.

16.Gulomjon, Y. (2022). INNOVATIVE IMPROVEMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 119-123.

17 Gulomjon, Y. (2022). THE ROLE AND FUNCTIONS OF THE SCIENCE OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATION SYSTEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(08), 130-134.

18. Sattorovich, Y. G. (2021). SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS OF INTEGRATION OF PHYSICAL AND CULTURAL-MORAL EDUCATION. *Thematics Journal of Education*

19.. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). History of the Sport of Kurash. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 329-333.

20. Yormatov, G. S. (2020). CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXERCISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133.

21. Yormatov, G. (2022). STOL TENNIS BILAN SHUG ‘ULLANUVCHILARNING PSIHOLOGIK PEDAGOGIK MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Ta’lim fidoyilari*, *8*, 167-171

FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TA’LIM VA MASHG‘ULOTNING ASOSIY PRINSIPLARINI AMALGA OSHIRISH

Yormatov G‘ulomjon Sattorovich
Farg‘ona davlat universiteti Sirtqi bo‘lim
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ta’lim va mashg‘ulotning asosiy prinsiplariga tarbiya beruvchi ta’lim prinsipi, onglilik va faollik prinsipi, ko‘rsatmalilik prinsipi, tizimlilik prinsipi, puxtalik prinsiplari kiradi. Bu prinsiplarning barchasi o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqolada futbolchilarni tayyorlashda ta’lim va mashg‘ulotning asosiy prinsiplari to’g’risida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Prinsip, onglilik va faollik prinsipi, ko‘rsatmalilik prinsipi, tizimlilik prinsipi, didaktik prinsip, sxema, chizma, kinogramma, umumiy va maxsus tayyorgarlik birligi.

Ta’lim va mashg‘ulot maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida didaktik prinsiplarga, ya’ni ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi prinsiplarga muvofiq tuziladi.

Ta’lim va mashg‘ulotning asosiy prinsiplariga tarbiya beruvchi ta’lim prinsipi, onglilik va faollik prinsipi, ko‘rsatmalilik prinsipi, tizimlilik prinsipi, puxtalik prinsiplari kiradi. Bu prinsiplarning barchasi o‘zaro uzviy bog‘liqdir.

Tarbiya beruvchi ta’lim prinsipi yetakchi prinsip hisoblanadi. Trener ta’lim va mashg‘ulot jarayonida futbolchilarni zarur maxsus bilimlardan xabardor qilib, ko‘nikma va malakalarni hosil qilibgina qolmay, balki sportchilarning ong va ijobiy xarakter fazilatlari shakllanishiga ham yordam beradi. Murabbiy tarbiyalashning umumiy maqsadlariga amal qilgan holda har bir mashg‘ulotda muayyan tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi. Bunda mashg‘ulotni aniq va o‘z vaqtida boshlash, trenerning shaxsiy namunasi, o‘z ishiga muhabbati, yuksak madaniyati, xulqi, talabchanligi, pedagogik nazokati katta ahamiyatga molikdir.

Ta’lim va mashg‘ulotning tarbiya beruvchi xarakteri murabbiy zimmasiga shogirdlarga o‘z kuchiga ishonchini mustaxkamlash, mashgulotda sportchilarni rag‘batlantira bilishni yuklaydi. Murabbiy bilan vrach nazoratida sport yuklamalarni asta-sekin oshirib borish futbolchi mahoratining oshib borishini taminlaydi.

Ta’limning onglilik va faollik prinsipi sportchining ongli, ijodiy faoliyati bilan pedagogik rahbarlikning eng qulay nisbatini bildiradi.

Mashg‘ulotlarga ongli munosabatda bo‘lmay turib, yuqori natijalarga erishib bo‘lmaydi. Sportchilar bajarayotgan mashqlaridan maqsad va vazifa nima ekanligini

tushunishlari zarur. Texnik va taktik usullarni mustaqil bajarib o‘rganish, murabbiy kuzatuvidagi mustaqil mashg‘ulotlar ongliliknі o‘stirishning muhim vositalaridir.

Faollik, ayniqsa, musobaqalarda asqotadi. Futbolchi o‘yin paytida mustaqil harakat qilishi, doimo o‘zgarib turuvchi vaziyatlarda tezda bir qarorga kela olishi, o‘z harakati va qilgan ishiga to‘liq javob berishi lozim. Chunki o‘yin paytida murabbiy yordam bera olmaydi.

Harakat malakalarini to‘g‘ri shakllantirishda, ularni puxtalashda, mashg‘ulotlarga qiziqishni oshirishda ko‘rsatmalilik prinsipining ahamiyati katta. Ta’lim va mashg‘ulotda ko‘rsatmalilikka turli usullar bilan erishiladi. Murabbiy usullarni o‘zi ko‘rsatishi yoki bu ishni tajribali futbolchiga topshirishi mumkin. Yuqoriroq klassdagi komanda o‘yinini futbolchilar bilan birgalashib ko‘rish, mashg‘ulotlarda fotosuratlardan, rasmlardan, sxema, chizma, kinogramma, kinofilmlardan, videoyozuv va shu kabilardan foydalanish mumkin. Futbol mashg‘ulotlarining hamma bosqichlarida: futbolchining mahorat darajasidan qat’i nazar, yangi usullarni o‘rganish, tafsilotlarni tushuntirishda, ularni puxtalash va takomillashtirish ko‘rsatmalilik prinsipi orkali amalga oshiriladi.

Tizimlilik prinsipi mashg‘ulotlarning o‘zida materiallarni o‘rganishda qat’iy izchillik va muayyan tizimlilikka rioya qilishni ko‘zda tutadi. Yil bo‘yi tayyorgarlikning har xil turlarini o‘rganish uchun vaqtni taqsimlaganda davrlashtirishni ham hisobga olishi kerak. Mashg‘ulotlarning chastota va sistemasi tayyorgarlik vazifalari hamda shug‘ullanuvchilar kontingentiga bog‘liq. Masalan, tayyorgarlik davrida, mashg‘ulotning birinchi bosqichida umumjismoniy, funksional vositalar yetakchi mavqyeni egallaydi, ikkinchi bosqichda esa maxsus tayyorgarlik shunday mavqega chiqadi.

Mashg‘ulotlarning bo‘linib qolishi, mashqlarni o‘rganishda izchillikning buzilishi, musobaqalarning haddan tashqari tez-tez o‘tkazilishi, musobaqa va mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan dam olishdagi optimal parametrlardan chekinish ta’lim va mashg‘ulotni qiyinlashtiradi hamda futbolchilarning sportdagi o‘sishini sekinlashtiradi.

Ta’limda tizimlik prinsipi o‘quv materialini shunday taqsimlashni taqozo qiladiki, bunda keyingi material mantiqan ilgarigisining davomi bo‘lib qoladi. Ta’lim va mashg‘ulot jarayonida bu prinsip pedagogik deduksiya qoidasidan kelib chiqib, ya’ni ma’lumdan noma’lumga, egallab olinganidan egallab olinmaganiga, oddiydan murakkabga, asosiydan ikkinchi darajaliliga, umumiydan xususiyga o‘tish orqali amalga oshiriladi.

Puxtalik prinsipi bu futbolchining o‘quv-mashg‘ulot jarayonida mashqlarni muntazam ravishda ko‘p marta takrorlashidan iborat bo‘lib, natijada puxta malaka hosil bo‘ladiki, futbolchi buni sport kurashi sharoitida namoyon qila oladi. Egallangan malaka puxta bo‘lishdan tashqari, doimo harakatda bo‘lishi ham lozim. Bunga

egallangan malakani faqat bosqichma-bosqich mustaxkamlab borish, ya’ni mashqlarni murakkablashtirish bilan erishiladi. Yangi, yanada murakkab mashqka, shakllanayotgan malakaning qanchalik puxta egallanganligi va yuklamaga qanchalik moslashilayotganligiga qarab o‘tish lozim.

Futbolchilarning ta’lim va mashg‘ulotda didaktik prinsiplar bilan bir qatorda mashg‘ulot jarayonini boshqarish prinsiplaridan, ya’ni ob’yektivlik, qulaylik, rag‘batlantirish, ilmiylik, samaradorlik, nazoratning muntazamligi prinsiplaridan ham foydalaniladi. Tayyorgarlikning butun kompleks vazifalarini bilish sport mashg‘ulot tizimi qaysi yo‘nalishda rivojlanib borishini, bunda tayyorgarlik vazifalarining qaysi biri xal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligini oldindan ko‘ra bilish mashg‘ulot jarayonini boshqarishning zarur shartidir.

Zamonaviy sport mashg‘uloti maxsus jarayon sifatida muayyan prinsiplar, qoidalar, ilmiy va uslubiy ko‘rsatmalar asosida yaxlit amalga oshirilmoqda.

Yuksak yutuqlarga erishishga qaratilgan harakat, ixtisosni chuqurlashtirish, sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi birligi, mashg‘ulot jarayonining uzluksizligi, asta-sekinlik va maksimal yuklama tendensiyasi birligi, yuklama dinamikasining to‘lqinsimonligi, mashg‘ulot jarayonining qonuniyatlari shular jumlasidandir.

O‘z oldiga yuksak sport natijalariga erishishni maqsad qilib qo‘ygan futbolchi uchun o‘z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish zaruriyatga aylangan bo‘lishi kerak. Bunday futbolchi sport yuklamasini qo‘llash va mashg‘ulotni tashkil qilishda chog‘i keladigan eng yuqori ko‘rsatkichlarga tenglashadi, ilg‘or shakl, vosita va uslublardan ijodiy tashabbus ko‘rsatgan holda foydalanadi.

Sportning boshqa turlarida bo‘lganidek, futbolda ham sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi birligiga rioya qilingandagina yuksak sport natijalariga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iseyev Sh.T.Futbol jamoalarining g‘alaba qozonishida futbolchilar-ning standart vaziyatlaridan samarali foydalanishi.«Pedagogik ta’lim»J. № 2, 2003 yil.
2. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.
3. Akramov R.A., Talibdjanov A- Yuqori malakali futbochilarni tayyorlash. O‘quv qo‘llanma 2009 y.
4. Atamuxamedova, M., Abdugapparov, A., Mixeyeva, A., & Yormatov, G. VLIYANIYe UMSTVENNOY DEYATELNOSTI U UCHAIЩIXSYA NA GAZOOBMEN V RAZLICHNЫIX EKOLOGICHYeSKIX USLOVIYAX. *SIMVOL NAUKI*, 81.

5. Atamukhamedova, M. R., Yormatov, G. S., & Erkaev, E. A. (2019). Relations between basic exchange and sprint. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(10), 304-308

6. .Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). Mass Sport Movement in Uzbekistan and its Role in Forming a Healthy Lifestyle. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 334-337.

7. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). History of the Sport of Kurash. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 329-333.

8. G'ulomjon, Y. (2023). Metho Yormatov, GS (2020). *CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXYeRCISES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133

9. G'ulomjon, Y. (2023). THE MORAL OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION IN YOUNG CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1155- 1161..

10. G'ulomjon, Y. (2023). MEDICAL BIOLOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF THE MOST HIGHLY QUALIFIED SPORES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1169-1175.

11. G'ulomjon, Y. (2023). Methodological Principles of Development of Physical Quality of Endurance in Children and Adolescents. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 178-182.

12. Gulomjon, Y. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL ABILITIES OF YOUNG STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 140-149.

13. Ghulom, Y. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 17-25.

14. Gulomjon, Y. (2022). INNOVATIVE IMPROVEMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 119-123.

15. Gulomjon, Y. (2022). THE ROLE AND FUNCTIONS OF THE SCIENCE OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATION SYSTEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(08), 130-134.

16. Sattorovich, Y. G. (2021). SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS OF INTEGRATION OF PHYSICAL AND CULTURAL-MORAL EDUCATION. *Thematics Journal of Education*.

17. Fozilov, H., & Fozilov, I. (2023). PERIODIC PROBLEMS OF THE NATIONAL STATISTICAL SYSTEM. *Engineering problems and innovations*.

18. Ilhomjon, F. (2023). Scientific Description of Table Tennis Racket Evaluation. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 114-118.

19. Fozilov, I. (2022). STATUS OF DIRECTION AND COMPETITION IN SPORTS SPORTS SPECIALTY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 60-64.

20. Fozilov, I. (2022). ORGANIZATION OF RECONSTRUCTION MEASURES AND PROCESSES FOR ATHLETES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 55-59.

21. Patidinov, K. (2023). TEMURBEKLAR MAKTABI HARBIY TEXNIKA LITSEYLARI O‘QUVCHILARINI. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TADQIQOT USLUBLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(35).

22. Umurzoqova, B. (2023). XORIZHIY TIL OKITUVCHILARINING MEDIATALYMGA MUNOSABATI. *Talqin Va tadqiqotlar* , *1* (34).

23. Umurzoqova, B. A. (2022). BOLAZHAK XORIZHIY TIL KOKITUVCHILARINI ZARARLI AXBOROTLAR TAHDIDAN HIMOYALASHDA MILLIY VA UMUMMILLIY KADRIATLARGA ASOSLANISH TAMOYILI. *TALIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR* , 60-62.

24. Patidinov, K. (2023). TEMURBEKLAR MAKTABI HARBIY TEXNIKA LITSEYLARI O‘QUVCHILARINI JISMONIY TARBIYA, SPORT TADBIRLARINING SHAKLLARI VA TURLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(33).

25. Kamoliddin, P. (2023). EFFECTS OF PHYSICAL EDUCATION EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON THE FUNCTION OF THE BODY OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Open Access Repository*, *4*(02), 26-32.

26. Mamadjanov, N., & Hamidov, S. (2023). Analysis of Physical Training Results for High School Students in Fargo City General Four a Schools. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *16*, 58-64.

27. Mamadjanov, N., & Bakirova, M. (2023). Analysis of the Results of Physical Training for Elementary School Students at the 50th Elementary School in Quwa County, Fargo. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *16*, 49-57.

28. Mamajonov, N. va Bakirova, M. (2022). MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING ZHISMONIY TAYORGARLIGI VA RIVOZHLANGANLIGINI TAHLIL KILISH KILISH VA BAGOLASH. *Pedagogik va ta'lim tadqiqotlari Amerika jurnali* , *6* , 13-19.

29. Mamadjonov, N. va Hamidov, S. (2023). Fargo shahridagi umumiy to'rtta maktabdagi o'rta maktab o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya natijalarini tahlil qilish. *Evroosiyo ta'lim va akademik ta'lim jurnali , 16* , 58-64.

30. Mamadjanov, N., & Nazirov, M. (2023). Methodological Characteristics of Ensuring the Integration of Physical Education in the System of School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *20*, 95-97.

31. Normatovich, U. Z. (2023). BOLALARNING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYA BERISHNING YANGI YO'LLARI. *Konferentsiya* , 96-108.

32. Abduvali, A. va Qurbonali, S. (2023 yil, may). UMUMIY TA’LIM MAKTABIDA JISMONIY TARBIYA FANINDAN SINFDAN TA’LIM TA’LIMLARNI REJALASHTIRISH USULLARIDAN. *E konferentsiya zonasida* (56-65-betlar).

33. Azizovna, U. B. (2022). Development of media culture through media education. *Eurasian Journal of Media and Communications*, *12*, 15-17.

34. Kamoliddin, P. (2023). EFFECTS OF PHYSICAL EDUCATION EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON THE FUNCTION OF THE BODY OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Open Access Repository*, *4*(02), 26-32.

35. Patiddinov, K. D. (2022). Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining Alpomish sog'liqni saqlash testlari standartlari bilan solishtirma dinamikasi. “Fanning dolzarb muammolari” da *: talabalar qarashlari* (297-299-betlar).

VOLEYBOLDA O‘RGATISH BOSQICHIDA TA’LIM VA MASHG‘ULOT BIRLIGI

Yormatov G‘ulomjon Sattorovich
Farg‘ona davlat universiteti Sirtqi bo’lim
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Voleybolchilarda ko’nikma va malaka sport tayyorgarligi jarayonida hosil qilinadi. Bunga esa mashqlarni qayta-qayta takrorlash orqali erishiladi. Ta’limning asosiy mazmuni – o’yinning texnik elementlarini, taktikadagi oddiy individual va guruh harakatlarini shakllantirishdan iborat. Mashgulot – ko’nikma va malakalarni mustaxkamlash, takomillashtirish bosqichidir.

Kalit so’zlar: Texnika, taktika, texnik elementlar,ta’lim, sport tayyorgarligi, malaka va ko’nikma, texnik usullar, mashgulot vositalari.

Voleybolchilarda ko’nikma va malaka sport tayyorgarligi jarayonida hosil qilinadi. Bunga esa mashqlarni qayta-qayta takrorlash orqali erishiladi, takroriylik, o’z navbatida, butun a’zo va tizimlar faoliyatiga ta’sir etadi. Sport tayyorgarligi – bu barcha omil (vosita, uslub, sharoit)lardan birgalikda izchil foydalanish bo’lib, Voleybolchilarning sport muvaffaqiyatlariga erishishdagi tayyorgarligi ta’minlanadi.

Sport tayyorgarligi butun jarayonini shartli ravishda ta’lim va mashg’ulot qismlariga bo’lish mumkin..

Ta’lim deganda shug’ullanuvchilarning bilim, malaka va ko’nikmalarning boshlang’ich bosqichini egallab olishi nazarda tutiladi. Ta’limning asosiy mazmuni – o’yinning texnik elementlarini, taktikadagi oddiy individual va guruh harakatlarini shakllantirishdan iborat.

Mashg’ulot – bu olingan bilim, ko’nikma va malakalarni mustahkamlash hamda takomillashtirishga qaratilgan tayyorgarlikning keyingi bosqichi. Mashg’ulotning asosiy mazmuni – texnik usullarni taktikadagi individual, guruh va jamoa harakatlarini takomillashtirishdan, jismoniy, axloqiy va irodaviy xislatlarni rivojlantirishdan iborat. Sport mashg’uloti bu boshqarish uslubi asosida uzviy tarzda sportchilar tayyorlashdir.

Ta’lim va mashg’ulotga maxsus tashkil qilingan ko’p yillik yagona pedagogik jarayon deb qarash zarur. Ularni bir-biridan keskin suratda ajratib bo’lmaydi, chunki ta’lim bera turib, mashg’ulot qildiramiz va ayni chog’da mashg’ulot qildira turib ta’lim beramiz.

Ta’lim va mashg’ulotni tushuncha sifatida ajratish o’quv-mashg’ulot ishining o’ziga xos vazifalari borligini ravshanroq aniqlash imkonini beradi. Voleybolchilar tayyorlashning turli bosqichlarida ta’lim va mashg’ulotning salmog’i o’zgarib turadi.

Ta’lim va mashg’ulot jarayoni tarbiyaviy xarakter kasb etishi kerak. Shunga qarab o’quv- mashg’ulotlarga katta talablar qo’yilmoqda. Mashg’ulotlar shunday uyushtirilishi kerakki, ular shug’ullanuvchilarda zarur malaka hamda ko’nikmalarni rivojlantirish bilan birga dunyo qarashlarini ham shakllantirsin. [1.3.4]

Ta’lim va mashg’ulot vazifalarining muvaffaqiyatli hal qilinishi eng avvalo murabbiyga bog’liq, chunki u o’quv-mashg’ulot jarayonida markaziy figura hisoblanadi. Murabbiy maxsus bilimini muntazam ravishda takomillashtirib, o’z g’oyaviy-siyosiy saviyasini oshirib borishi, ilm-fan va amaliyotdagi yangi yutuqlardan xabardor bo’lishi, ularni ta’lim, mashg’ulot jarayoniga joriy eta bilishi kerak.

Ta’lim va mashg’ulotning vazifalari

Voleybol bo’yicha tashkil qilingan mashg’ulotlar mamlakat jismoniy tarbiya tizimi oldida turgan vazifalarni hal qilishga qaratilgandir. Mashg’ulotlarning asosiy mazmuni kishini jismonan kamol toptirish, uning ijodiy mehnat qilishi va Vatan himoyasi uchun zarur bo’lgan ma’naviy hamda jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishdan iborat bo’lishi kerak.

Biroq Voleybol amaliyotida ba’zan yuksak natijalar ketidan quvib, ta’lim va mashg’ulotning sog’lomlashtiruvchi yo’nalishini, ya’ni tarbiyaviy xususiyatini yoddan chiqarib qo’yadilar. Mashg’ulotga bunday bir tomonlama yondashish, odatda, noxush oqibatlarga olib keladi.

Voleybolchilarning sog’lom, jismonan yaxshi rivojlanganligi, yuksak axloqiy-irodaviy fazilatlari Voleybol mahoratini egallab olishda asosiy omil bo’lib xizmat qiladi.[2.5]

Voleybolchilarning ta’lim va mashg’ulot jarayonlarida quyidagi vazifalar hal kilinishi lozim:

a) harakat malakalari va irodaviy sifatlarni takomillashtirish;

b) sportchilar organizmining (nafas olish, yurak-qon tomir va boshqa tizimlar) funktsional imkoniyatlarini kengaytirish;

v) sportchilarning ishchanlik qobiliyatini saqlash va oshirish;

g) sport sohasiga oid bilimni kengaytirish hamda gigiena va o’z-o’zini nazorat qilish malakalarini hosil qilish;

d) mehnatsevarlik, intizomlilik, onglilik, faollik xislatlarini tarbiyalash.

Mashg’ulot jarayonida bu vazifalarni izchillik bilan hal qilish yuksak sport natijalarini qo’lga kiritgan inson organizmining g’oyat katta imkoniyatlaridan to’laroq foydalanishga sharoit yaratadi.

Raqobatchi jamoalar mahorati darajasining uzluksiz o’sib borishi Voleybolchilar tayyorlashga bo’lgan talablarni yil sayin har tomonlama oshirib borish zaruratini tug’diradi. Voleybolchilar tayyorlashga qo’yiladigan bu xildagi talablarning to’laqonli bajarilishi mashg’ulotning pedagogik printsiplarini izchil amalga oshirish va birinchi

navbatda, uning jarayonlarini ilmiy boshqarish qonuniyatlariga og'ishmay amal qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

Ta'lim va mashg'ulot vositalari

Jismoniy mashqlar, gigienik omillar hamda tabiatning tabiiy kuchi voleybolchilarni tayyorlashda ta'lim va mashg'ulot vositalari hisoblanadi.

Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda takomillashtirish asosan jismoniy mashqlarni uzviy ravishda bajarish bilan bog'liqdir. Jismoniy mashqlar harakatlar koordinatsiyasini yaxshilash, kuch, tezkorlik, chidamlilik va epchillikni oshirishga yordam beradi. Bundan yurak-qon tomir, nafas olish va organizmning boshqa tizimlari faoliyati takomillashadi, binobarin, sportchining ishchanlik qobiliyati oshadi, yuklamadan keyingi tiklanish jarayoni tezlashadi. Har bir mashq u yoki bu sifat va malakalarga oz yoki ko'proq darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham jismoniy mashqlar ko'proq ta'sir etishiga qarab tanlanadi.

Voleybolchilarning mashg'ulotida qo'llaniladigan hamma mashqlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: 1) musobaqa mashqlari, 2) maxsus tayyorgarlik mashqlari, 3) umumiy tayyorgarlik mashqlari.

Musobaqa mashqlari – bu yaxlit harakat faoliyatidan yoxud ularning majmuidan iborat. Bu harakatlar majmui esa Voleybol o'yini predmeti va Voleybol bo'yicha musobaqa qoidalariga to'la muvofiq holda bajariladigan harakatlar yig'indisi demakdir.

Maxsus tayyorgarlik mashqlari musobaqa harakatlari elementlarini, ularning variantlarini, shuningdek, ish va harakatni shakl va xarakter jihatidan bunga juda o'xshash xususiyatlar (o'yin harakatlari va kombinatsiyalari)ni o'z ichiga oladi.

Maxsus tayyorgarlik mashqlari voleybolda qa'tiy ravishda o'yin xususiyatiga qarab aniqlanadi. Ayni paytda bu mashqlar o'yinda bir xil bo'lmaydi. Ular voleybolchi uchun zarur bo'lgan xislat va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan va differentsial tarzda ta'sir etishni ta'minlay oladigan qilib tanlanadi.

O'z navbatida, maxsus tayyorgarlik mashqlari yordamchi va rivojlantiruvchi mashqlarga bo'linadi. Yordamchi mashqlar asosan harakat shakli va texnikasini egallab olishga ko'maklashadi. Rivojlantiruvchi mashqlar esa asosan jismoniy xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Amaliy tayyorgarlik mashqlari voleybolchining ko'proq umumiy tayyorgarlik ko'rishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday mashqlar jumlasiga ta'sir etish jihatidan maxsus tayyorgarlik mashqlariga ancha o'xshash va ayni paytda ulardan anchagina farq qiladigan turli-tuman mashqlarni kiritish mumkin.

Umumiy tayyorgarlik mashqlari yordamida har tomonlama jismoniy tarbiyalash vazifalarini samarali xal qilish hamda voleybolchilarning asosiy jismoniy xususiyatlari, harakat, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga ham ta'sir etish mumkin.

Voleybolchining mashg’ulotida qo’llanadigan hamma mashqlarni asosiy va yordamchi mashq turlariga bo’lish mumkin.

Asosiy mashqlarga quyidagilar kiradi:

a) harakat sifatlarini rivojlantiruvchi umumiy va maxsus mashqlar;

b) to’pni olib yurish texnikasini o’rganish va takomillashtirish mashqlari;

v) taktik usul, kombinatsiya va o’yin tizimlarini o’rganish hamda takomillashtirish mashqlari.

Yordamchi mashqlarga quyidagilar kiradi:

a) shartli reflekslarning yangi tizimi paydo bo’lishiga, asosiy harakat malakalarini amalga oshirishda organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradigan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar;

b) harakat strukturasiga (vaqtincha bog’lanish) ko’ra harakat malakalarining turli qismlariga mos yoki shunga yaqin bo’lgan maxsus mashqlar;

v) harakat malakalarini shakllantirish va organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beruvchi sportning boshqa turlaridan olinadigan mashqlar.

Qo’llanadigan mashqlarning umumiy hajmini oshirib borish natijasida mashqlarning birga qo’shilgandagi ta’sirini hisobga olib, bir mashqdan bir qancha vazifani hal qilish uchun foydalanish borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiatning tabiiy kuchlari hamda gigienik omillar shug’ullanuvchilar organizmiga mashqlar va boshqa vosita-larning yaxshi ta’sir etishi uchun ko’maklashadi. Yuklama va dam olishni, o’z vaqtida ovqatlanishni, tungi uyqu rejimini, mehnat va turmush gigienasini navbati bilan vaqtida to’g’ri almashtirib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Voleybol O’YIN TEXNIKA VA NAKNIKASINI O’RGATISH USLUBIYOTI SOTIVOLDIYEV Q.R. Namangan 2019 y.

2. Nurimov R.I. Yosh Voleybolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.

3. L.R. AYRAPETYANS, A.A.PULATOV V O L E Y B O L nazariyasi va uslubiyati Toshkent - 2011

4. G’ulomjon, Y. (2023). MEDICAL BIOLOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF THE MOST HIGHLY QUALIFIED SPORES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1169-1175.

5. G’ulomjon, Y. (2023). Methodological Principles of Development of Physical Quality of Endurance in Children and Adolescents. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 178-182.c

6.Atamuxamedova, M., Abdugapparov, A., Mixeyeva, A., & Yormatov, G. VLIYANIYe UMSTVENNOY DEYATELNOSTI U UCHAIЩIXSYA NA GAZOOBMEN V RAZLICHNЫIX EKOLOGICHYeSKIX USLOVIYAX. *SIMVOL NAUKI*, 81.

7. Atamukhamedova, M. R., Yormatov, G. S., & Erkaev, E. A. (2019). Relations between basic exchange and sprint. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(10), 304-308

8. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). Mass Sport Movement in Uzbekistan and its Role in Forming a Healthy Lifestyle. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 334-337.

9. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). History of the Sport of Kurash. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 329-333.

8. G'ulomjon, Y. (2023). Metho Yormatov, GS (2020). *CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXYeRCISES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133

10. G'ulomjon, Y. (2023). THE MORAL OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION IN YOUNG CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1155- 1161..

11. G'ulomjon, Y. (2023). MEDICAL BIOLOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF THE MOST HIGHLY QUALIFIED SPORES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1169-1175.

12. G'ulomjon, Y. (2023). Methodological Principles of Development of Physical Quality of Endurance in Children and Adolescents. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 178-182.

13. Gulomjon, Y. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL ABILITIES OF YOUNG STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 140-149.

14. Ghulom, Y. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 17-25.

15. Gulomjon, Y. (2022). INNOVATIVE IMPROVEMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 119-123.

16. Gulomjon, Y. (2022). THE ROLE AND FUNCTIONS OF THE SCIENCE OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATION SYSTEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(08), 130-134.

17. Sattorovich, Y. G. (2021). SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS OF INTEGRATION OF PHYSICAL AND CULTURAL-MORAL EDUCATION. *Thematics Journal of Education*.

18. Fozilov, H., & Fozilov, I. (2023). PERIODIC PROBLEMS OF THE NATIONAL STATISTICAL SYSTEM. *Engineering problems and innovations*.

18. Ilhomjon, F. (2023). Scientific Description of Table Tennis Racket Evaluation. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 114-118.

19. Fozilov, I. (2022). STATUS OF DIRECTION AND COMPETITION IN SPORTS SPORTS SPECIALTY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 60-64.

20. Fozilov, I. (2022). ORGANIZATION OF RECONSTRUCTION MEASURES AND PROCESSES FOR ATHLETES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 55-59.

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT BO‘YICHA ILMIY – PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH VA ILMIY TADQIQOT ISHLARINI TASHKIL ETISH

A.A.Muhiddinov
FarDU Sirtqi bo‘lim Aniq va tabiiy fanlar kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sportning ko‘p sohalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda, Ishlab chiqarish va mehnatning jismoniy hamda aqliy turlarida, Umuman olganda jismoniy tarbiya va sportning ishlab chiqarishdagi mohiyati, Mashqlarning ijobiy yoki salbiy ta’sirini bilish qoidalari, Aqliy va jismoniy mehnat aralash holda mehnat qiluvchi kishilar.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy, uslubchilar, sport klub, vositalar, texnik, Aqliy mehnat, jismoniy mehnat, funksiya, mushak.

Jismoniy tarbiya va sportning ishlab chiqarish, ularni uzaytirish va ta’lim-tarbiya jarayonlaridagi amaliy mohiyatlari haqida juda ko‘p ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinovlar o‘tkazilib, uning ilmiy asoslari yaratilgan. Hatto ulug‘ bobomiz Abu Ali ibn Sino va uning zamondoshlari, keyingi darvlarda o‘tgan Alisher Navoiy, Bobur va b.q. allomalarning ilmiy, badiiy asarlarida ham badan (jismoniy) tarbiya, amaliy harakat, ov qilish, kurash kabilarning ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlari mazmun topgan.

O‘tgan asrning 60-70 yillarida mehnatni ilmiy tashkillashtirish ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan eng katta shiorga aylangan. Ularning mazmunida ifodalanishicha, jismoniy mashqlar (sport ham) ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat qobiliyati va ishlab chiqarish unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy-amaliy jihatdan isbot etilgan. Shular asosida turli sohadagi kasb egalari (zavod-fabrika, tikish-bichish) aqliy mehnat va h.k.) uchun juda ko‘p mashqlar majmui (kompleks) ishlab chiqilib, ular barcha Respublikalarga joriy etilgan. Shu yo‘nalishda Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Navoiy kabi shaharlarning yirik sanoat korxonalarida bu majmualar keng amalga oshiriladi. Bu o‘z navbatidi har bir yirik korxonada 10-15 nafar mutaxassis xodimlarni birlashtirishga va ularning ish haqi zavod-fabrika kasaba uyushmalari tomonidan ta’minlanib boriladi. Ular korxonaning sport klublari faoliyatida amaliy jihatdan ko‘mak berib keldi. Xar bir korxonadagi jamoatchi tashkilotlarning faoliyatlarini yuritish, moddiy-texnik ta’minot masalalari o‘zini-o‘zi boshqarish, xo‘jalik hisobi kabi turlarga aylantirildi. Bu jarayonlarni tashkil etish va yuritishda bozor iqtisodiyotiga o‘tish islohatlari yo‘llarini o‘zlashtirish ancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Lekin ishbilarmon, tadbirkorlik va xo‘jalikni yuritish yo‘llarini yaxshi o‘zlashtirgan korxonalarda sport masalalari ham o‘z ifodasini topib,

katta yutuqlarga erishilmoqda. Bunda ijara, pullik xizmat, xomiylik va shu kabi ish faoliyatlar yaxshi samara bermoqda.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning ko‘p sohalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda.

Ishlab chiqarish va mehnatning jismoniy hamda aqliy turlarida jismoniy tarbiya vositalaridan maqsadli foydalanish, ayniqsa o‘quvchi-yoshlar va talabalarni mehnat jarayonlariga tayyorlashdi jismoniy tarbiya va vositalaridan maqsadli foydalanish, ayniqsa o‘quvchi-yoshlar va talabalarni mehnat jarayonlariga tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning mohiyatlari haqida qator tadqiqotlar o‘tkazildi. Bular orasida G.S.Usmonxo‘jayev, J.T. Toshpo‘latov, J.E.Eshnazarov, K.Alimov, A.N. Borshin kabilarning disser-tatsiya ishlari e’tiborga loyiqdir.

Umuman olganda jismoniy tarbiya va sportning ishlab chiqarishdagi mohiyati haqidagi tadqiqotlar samarali olib borilmoqda.

Yuqoridagi guruhlar va tilga olinmagan boshqa sohalarda xizmat qiluvchi xodimlarni umumiy holda uch guruhga ajratish va mashqlar yo‘nalishiga quyidagicha belgilash maqsadga yaqin bo‘ladi.

- Jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar (1);
- Aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar (2-ijodkorlar va idora xodimlari);
- Jismoniy va aqliy mehnat aralash(3-o‘qituvchi, shifokor, aloqa, tikish-bichish va h.k.).

Analiz yo‘nalishidagi mehnatkashlar uchun jismoniy mashqlarning shakllari va mazmunlarini quyidagicha ifodalashga to‘g‘ri keladi:

1 guruh.

- a) mehnat jarayonida uslubchilar tomonidan har 2-3 soatda maxsus mashqlarni bajartirish:
- yengil yurib (15-20 metr) nafas olish va chiqarish;
- qo‘llarni bukib, tirsaklarni (yelka) aylantirish;
- belni bukish, gavdani aylantirish;
- oyoqlarni yon-orqa-oldinga ko‘tarish, o‘tirib-turish;
- barmoqlar va boshqa barcha bo‘g‘inlar harakatini qilish;
- yugurish, chuqur nafas olish va chiqarish;
- 3-5 daqiqa o‘tirib dam olish, shashka, damino,tennis o‘ynash, oddiy suhbat qurish va h.k.

Har bir mashqni sharoitlar va vaqtga qarab kamida 5-6 marotaba takrorlash lozim. Egilish, burilish, o‘tirib-turish mashqlarini jismoniy tayyorgarlik yoki mehnatning xususiyati asosida (ko‘proq qaysi tana a’zolari ishti-rok etishi) ko‘prta yoki kuchliroq bajarish tavsiya etiladi.

b) Ishdan keyingi bo‘sh vaqtlarda individual ravishda yoki guruhga bo‘lib mashq-o‘rinlarni bajarish, bunda esa:

- mehnat jarayonida o‘rgangan va o‘ziga ma’qul bo‘lgan mashqlarni bajarish, takrorlash;
- turnikda osilish, tortilish, o‘tirg‘ichda (skameyka) qo‘llarni bukib-yozish, yotgan holda gada, oyoqlarga mashqlar berish;
- gip (tosh), gantellarni ko‘tarish;
- 1-1,5 km, masofalarga yugurish;
- futbol, voleybol, tennis va b.h. sport turlari bilan shug‘ullanish va h.k.

Yuqorida tavsiya etilgan mashqlarni tanlash va ularni har kuni yoki kunaro bajarishda bir qolipga solish lozim bo‘ladi. Mashqlarningmiqdori, hajmi va bajarilish usullarini nazariy jihatdan (uslubchilar yoki maxsus kitoblar orqali) bilish shart bo‘ladi.

Mashqlarning ijobiy yoki salbiy ta’sirini bilish qoidalari haqida ham tegishli tushunchalarga ega bo‘lish yoki shifokorlar bilan suhbatlashish lozimdir.

V) sport inshoatlari, markazlari va b.q. joylarda tashkil etilgan sog‘lomlashtirish chiniqtirish guruhlarida (trenajyor) shug‘ullanish yo‘li bilan salomatlikni oshishi, jismoniy rivojlanish mumkin bo‘lgan. Bunda shifokorlar nazorati va bevosita yordamida, shuningdek mutaxassislarning (murabbiy, uslubchi, o‘qituvchi va h.k.) amaliy faoliyatida jismoniy mashqlarni tanlash, bajarish usullarini chuqur o‘zlashtirish imkoniyatlari bo‘ladi.

g) Dam olish kunlari hamda ta’til paytlarida mehnat jamoasi (sport klub) tomonidan o‘tkaziladigan turli xil sport musobaqalarida faol qatnashish. Ayniqsa, «Axolini salomatligini baxolovchi» maxsus test talablarini to‘la bajarishga erishish, undagi mashqlarni kundalik rejimga kiritib, doimiy ravishda tarqalib borish. Ta’kidlash lozimki, ayollar o‘zlarining ish tartibi va turiga qarab mashqlarni bajarishda faol ishtirok etishlari lozim. O‘tirib, ko‘nta qo‘l bilan ishlaydigan yoki tugmalarni (pult) bosib texnik vositalarni boshqarishda yurib-o‘tirib bajaruvchilar ham tana a’zolarini harakatlantirish yoki dam oldirish mashqlarini tanlashlari ish davomida individual ravishda yoki bo‘lib (bir xil mehnat qiluvchilar) mashqlarni bajarishlari lozim.

Xullas, jismoniy mashqlar, turli xil o‘rinlar, suhbat-qiluvchilar orqali har bir ishchi va mehnatkash tana a’zolarining dam olishi, yurak qon tomirlari faoliyatini o‘z me’yorlariga keltirishi lozim. Bu asosan salomatlikni yaxshilash, mehnat qobiliyatini oshirish, ish unumini ta’minlashga qaratilishi lozim.

2 gurux. Aqliy mehnat qiluvchilar va doimo o‘tirib ishlaydiganlar (tikish-bichish, kompyuterchilar va h.k.) quyidagi yo‘nalishlarda mashq o‘yinilishlari lozim:

a) Mehnat jarayonida har 3-4 soatda toza havo, maxsus joylarda 10-15 daqiqa yurish. Bu vaqtda qo‘llar, oyoqlar gavda va boshqa a’zolarni harakatlantiruvchi bo‘g‘inlarga maxsus mashqlarni bajarish. Nafas olish va chuqurlashtirish mashqlarini

bajarish. Har bir xodim o‘z salomatliklari va jismoniy holatlarga qarab mashqlarni tanlashi, ularning bajarilish usullari hamda miqdorlarini nazariy jihatdan bilishlari lozim.

Imkoniyat darajasida guruhlarga bo‘linib, futbol, voleybol, tennis o‘ynashlari yoki 300-500 m. masofalarga yugurish lozim.

b) Yakka-tartibda yoki oila a’zolari, ham kasb qo‘shnilar va b.q.bilan birgalikda hovli, hiyobon, o‘yin maydonlarida turli xil mashqlar, o‘yinlar ertalab va bo‘sh vaqtlarda takrorlash;

v) Dam olish kunlari, bayramlarda sayohatlarga chiqish, sport mashg‘ulotlari, musobaqalarida ishtirok etish. Sog‘lomlashtirish markazlaridagi trenajyorlarda bevosita shug‘ullanishga odatlanish.

Ta’kidlash lozimki, aqliy mehnatdagi (muxandislar, ijodkorlar, rassomlar va h.k.) xodimlar anatomiya, fiziologiya, biologiya, kimyo fanlarining mazmunini yaxshi bilishsada, ular har doim ularga to‘la amal qilishmaydi yoki amal qiluvchilar soni juda ham kam uchraydi. Shu tufayli ular bo‘sh vaqtlarida odam tanasining tuzilishi (suyak, mungak,asab va ularning tolalari, to‘g‘imi va xujayralari) hamda faoliyatlarini (funksiya) qayta o‘qish, bilish zarur. Chunki odam tanasidagi funksional (faoliyat) harakatlarga jismoniy mashqlar (sport ham) u yoki darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ularning ijobiy ta’sirlarini nazariy va amaliy jihatdan sezgan, bilgan holda mashqlarning turlari, shakllari, hajmi va bajarilish miqdori hamda usullarini ko‘paytirib,oshirib borishga to‘g‘ri keladi. Shundagini ishlab chiqarish mehnat qobiliyatlarni takomillashtirish, ayniqsa jismoniy rivojlanish va chiniqishgayerishiladi. Bu esa sog‘lom turmush tarzini yaxshilash, uzoq umr ko‘rishga olib boradi.

III guruh. Aqliy va jismoniy mehnat aralash holda mehnat qiluvchi kishilarning (qurilish muxandislari, turli idoralarning xodimlari, sanoatkorlar, shifokorlar, o‘qituvchilar va h.k) kundalik turmush va mehnat jarayonlarida turli xil jismoniy va aqliy mehnat qilishlariga to‘g‘ri keladi. Ular uchun eng avvalo quyidagi shart-sharoitlarni aniq belgilab olishlari shart bo‘ladi, ya’ni:

1.Har kungi mehnat (jismoniy va aqliy) tartibini (rejim) vaqtlarga ajratish va jismoniy mashqlarni bajarishni odatlantirish.

2.Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus adabiyotlarni to‘plash, yuqorida ta’kidlanganidek bu guruhga tobe (tegishli) kishilar eng avvalo o‘zlarining salomatliklarini yaxshi bilishlari va tana a’zolarining faoliyatlariga (funksiya) qarab mashqlar bilan shug‘ullanish yo‘llari hamda usullarini yaxshi o‘zlashtirishlari lozim. Bu holda ko‘ngilsiz xodisalar yuz berishi mumkin. Shu o‘rinda bir misolni keltirish o‘rinli bo‘lar edi: ya’ni o‘zining salomatligi haqida shifokorlarning nasihat va maslahatlarini olmagan (amal qilmagan) yoki jismonan holatini yaxshi bilmagan kishi u yoki bu sababga ko‘ra (bahslashish, o‘zini sinab ko‘rish va h.k.) og‘ir tosh ko‘tarish kurashga tushish, uzoq vaqt yugurish (5-10 daqiqa) va b.q. og‘ir mashqlarni bajarish

natijasida yurak, oshqozon va b.q. a’zolarni ishdan chiqarish, suyak-mushaklarni jarohatlashi mumkin.

Yana bir misol: o‘zini kuchli, chaqqon, yengil deb biladigan ba’zi bir ijodkor xodimlar, o‘qituvchi yoki shifokor to‘ylarda otga minib ko‘pkarni yoki poygadagi to‘daga tushadi. Tajriba yo‘qligi, jismoniy jihatdan maxsus tayorgarligi yetarli bo‘lmaganligi uchun ular otdan yiqilib suyak sinishi, ularni tortishishda oyoq yoki qo‘llardagi bo‘g‘inlarning cho‘zilishi, suyaklarning joyidan qo‘zg‘alishi (chiqishi), etlarining (mushak) qattiq urilishi natijasida lat yeyishi, jarohatlanishi ko‘p uchraydi. Yuqoridagi mulohazalarga xulosa yasanilsa, har bir ijodkor yoki aqliy mehnat kishilari jismoniy jihatdan barkamol bo‘lishlari lozim. Og‘ir jismoniy mashqlar yoki sport bilan shug‘ullanishga moyil qilgan yoki qiziqqanlar maxsus guruhlar, to‘garaklarda ishtirok etishlari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iseyev Sh.T.Futbol jamoalarining g‘alaba qozonishida futbolchilar-ning standart vaziyatlaridan samarali foydalanishi.«Pedagogik ta’lim»J. № 2, 2003 yil.
2. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.
3. Akramov R.A., Talibdjanov A- Yuqori malakali futbochilarni tayyorlash. O‘quv qo‘llanma 2009 y.
4. Atamuxamedova, M., Abdugapparov, A., Mixeyeva, A., & Yormatov, G. VLIYANIYe UMSTVENNOY DEYATELNOSTI U UCHAIЩIXSYA NA GAZOOBMEN V RAZLICHNЬIX EKOLOGICHYeSKIX USLOVIYAX. *SIMVOL NAUKI*, 81.
5. Atamukhamedova, M. R., Yormatov, G. S., & Erkaev, E. A. (2019). Relations between basic exchange and sprint. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(10), 304-308
6. .Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). Mass Sport Movement in Uzbekistan and its Role in Forming a Healthy Lifestyle. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 334-337.
7. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). History of the Sport of Kurash. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 329-333.
8. G’ulomjon, Y. (2023). Metho Yormatov, GS (2020). *CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXYeRCISES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133
9. G’ulomjon, Y. (2023). THE MORAL OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION IN YOUNG CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1155- 1161..

10. G'ulomjon, Y. (2023). MEDICAL BIOLOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF THE MOST HIGHLY QUALIFIED SPORES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1169-1175.

11. G'ulomjon, Y. (2023). Methodological Principles of Development of Physical Quality of Endurance in Children and Adolescents. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 178-182.

12. Gulomjon, Y. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL ABILITIES OF YOUNG STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 140-149.

13. Ghulom, Y. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 17-25.

14. Gulomjon, Y. (2022). INNOVATIVE IMPROVEMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 119-123.

15. Gulomjon, Y. (2022). THE ROLE AND FUNCTIONS OF THE SCIENCE OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATION SYSTEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(08), 130-134.

16. Sattorovich, Y. G. (2021). SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS OF INTEGRATION OF PHYSICAL AND CULTURAL-MORAL EDUCATION. *Thematics Journal of Education*.

17. Fozilov, H., & Fozilov, I. (2023). PERIODIC PROBLEMS OF THE NATIONAL STATISTICAL SYSTEM. *Engineering problems and innovations*.

18. Ilhomjon, F. (2023). Scientific Description of Table Tennis Racket Evaluation. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 114-118.

19. Fozilov, I. (2022). STATUS OF DIRECTION AND COMPETITION IN SPORTS SPORTS SPECIALTY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 60-64.

20. Fozilov, I. (2022). ORGANIZATION OF RECONSTRUCTION MEASURES AND PROCESSES FOR ATHLETES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 55-59.

21. Patidinov, K. (2023). TEMURBEKLAR MAKTABI HARBIY TEXNIKA LITSEYLARI O‘QUVCHILARINI. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TADQIQOT USLUBLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(35).

22. Umurzoqova, B. (2023). XORIZHIY TIL OKITUVCHILARINING MEDIATALYMGA MUNOSABATI. *Talqin Va tadqiqotlar* , *1* (34).

23. Umurzoqova, B. A. (2022). BOLAZHAK XORIZHIY TIL KOKITUVCHILARINI ZARARLI AXBOROTLAR TAHDIDAN HIMOYALASHDA MILLIY VA UMUMMILLIY KADRIATLARGA ASOSLANISH TAMOYILI. *TALIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR* , 60-62.

24. Patidinov, K. (2023). TEMURBEKLAR MAKTABI HARBIY TEXNIKA LITSEYLARI O‘QUVCHILARINI JISMONIY TARBIYA, SPORT TADBIRLARINING SHAKLLARI VA TURLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(33).

25. Kamoliddin, P. (2023). EFFECTS OF PHYSICAL EDUCATION EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON THE FUNCTION OF THE BODY OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Open Access Repository*, *4*(02), 26-32.

26. Mamadjanov, N., & Hamidov, S. (2023). Analysis of Physical Training Results for High School Students in Fargo City General Four a Schools. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *16*, 58-64.

27. Mamadjanov, N., & Bakirova, M. (2023). Analysis of the Results of Physical Training for Elementary School Students at the 50th Elementary School in Quwa County, Fargo. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *16*, 49-57.

28. Mamajonov, N. va Bakirova, M. (2022). MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING ZHISMONIY TAYORGARLIGI VA RIVOZHLANGANLIGINI TAHLIL KILISH KILISH VA BAGOLASH. *Pedagogik va ta'lim tadqiqotlari Amerika jurnali* , *6* , 13-19.

29. Mamadjonov, N. va Hamidov, S. (2023). Fargo shahridagi umumiy to'rtta maktabdagi o'rta maktab o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya natijalarini tahlil qilish. *Evroosiyo ta'lim va akademik ta'lim jurnali , 16* , 58-64.

30. Mamadjanov, N., & Nazirov, M. (2023). Methodological Characteristics of Ensuring the Integration of Physical Education in the System of School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *20*, 95-97.

31. Normatovich, U. Z. (2023). BOLALARNING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYA BERISHNING YANGI YO'LLARI. *Konferentsiya* , 96-108.

32. Abduvali, A. va Qurbonali, S. (2023 yil, may). UMUMIY TA’LIM MAKTABIDA JISMONIY TARBIYA FANINDAN SINFDAN TA’LIM TA’LIMLARNI REJALASHTIRISH USULLARIDAN. *E konferentsiya zonasida* (56-65-betlar).

33. Azizovna, U. B. (2022). Development of media culture through media education. *Eurasian Journal of Media and Communications*, *12*, 15-17.

34. Kamoliddin, P. (2023). EFFECTS OF PHYSICAL EDUCATION EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON THE FUNCTION OF THE BODY OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Open Access Repository*, *4*(02), 26-32.

35. Patiddinov, K. D. (2022). Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining Alpomish sog'liqni saqlash testlari standartlari bilan solishtirma dinamikasi. “Fanning dolzarb muammolari” da *: talabalar qarashlari* (297-299-betlar).

JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

A.A.Muhiddinov
FarDU Sirtqi bo‘lim Aniq va tabiiy fanlar kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy madaniyat sohasida mustaqillik yillarida bo‘lgan o‘zgarishlar va bu sohada faoliyat yurituvchi kadrlar masalasiga doir ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-madaniy, ta’lim tarbiya, uzluksiz, jismoniy tarbiya, Ixtisoslashtirilgan, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya vositalari, sport musobaqalari.

O‘zbekiston mustaqilligining 30 yilligi davrida o‘tkazilgan tub isloxatlar mazmunida jismoniy madaniyat sohasida mutaxssislar tayyorlash eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mutaxassislar tayyorlash negizida quyidagi ijtimoiy-madaniy va ta’lim tarbiya jarayonlarining mushtarakligi ifodalanadi, yani:

- Davlat qurilishi va siyosatining uyg‘unligi;
- qonun va qarorlarning istiqlol taqozasi bilan ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi;
- ishlab chiqarish va mehnat jarayonlarining sog‘lom turmush tarzini taminlashdagi ijobiy tasiri;
1.Jismoniy madaniyat tashkilotchisi ishlab chiqarish korxonalarining bo‘linmalari, yirik syexlarida mehnatkashlarni jismoniy tarbiya ishlariga jalb etish, turli sport tadbirlariga tayyorlash va tashkilotchilik faoliyatlarni amalga oshiruvchi jamoatchilikning asosidagi xodimlar. Ular jismoniy tarbiya mashqlarini (kirish gimnastikasi, jismoniy madaniyat lahzalari-fizkulminut, fizkultura va h.k.) ish jarayonida o‘tkazish, sport turlari bo‘yicha komandalar tayyorlash, musobaqalarda ishtirok etishni ta’minlaydi. Demak ana shu faoliyatlar bilan bog‘liq barcha faoliyatlarni ular nazariy va amaliy jihatdan bilishlari shart bo‘ladi.

2.Jismoniy madaniyat uslubchisi bo‘linmalar, yirik sexlar va unga katta bo‘lmagan ishlab chiqarish jamoalarida faoliyat ko‘rsatadi. U o‘z faoliyatlari bilan shatatdagi instruktor-metodistning yordamchisi yoki u shtat bo‘lmasa, asosiy tashkilotchi-uslubchi hisoblanadi. U o‘z faoliyatidagi barcha jismoniy tarbiya va sport

ishlarini bajarishda rahbarlik qiladi. Demak uslubchi, faqat jamoadagi sport tadbirlarini tashkil qilish yo‘llarinigina emas, balki yirik korxona va xatto tuman (shahar) miqyosidagi sport tadbirlarining tashkiliy jihatlarini ham yaxshi bilishi kerak.

3.Sport turlari bo‘yicha jamoatchi murabbiy. Bu faoliyatini ikki turga ajratish mumkin, ya’ni:

- sport sohasidagi mutaxassis kadr (oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotli) jamoatchilik asosida sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda xizmat qiladi;
- maxsus ma’lumotga ega bo‘lmagan va sportda ma’lum tajribalarga ega bo‘lgan xodimdir, u ham sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda faoliyat ko‘rsatadi. Demak bunday jamoatchi murabbiy (sport turiga qarab) o‘zining sport mahoratini oshirish, mashg‘ulotlarni olib borish tarbirlari, qoidalari va tamoyillariga ega bo‘lish lozim.

4.Sport turlari bo‘yicha hakamlar. Ma’lumki sport musobaqalarini hakamsiz tasavvur qilish mumkin emas. Har bir sport turining xususiyatlariga qarab musobaqalarni hakamlar soni (bosh hakam, katta hakam, oddiy hakam, kotib hakam va h.k.) belgilanadi.

Har bir korxonada yil davomida kamida sport turlari bo‘yicha (10-15) 5-6 marotabadan musobaqalar o‘tkaziladi. Bu tadbirlar har bir jamoada kamida 20-30 va undan ko‘proq hakamlar bo‘lishini taqazo etadi.

Umuman olganda har bir ishlab chiqarish mehnat jamoasida yuzlab jamoatchi faollarning bo‘lishi, ularni maxsus o‘quv-seminar mashg‘ulotlarida (30-40 soatlik) tayyorlash lozimdir. Bunda Respublika kasaba uyushmalari jismoniy madaniyat-sport jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan maxsus o‘quv-seminar rejasi hamda dasturidan foydalanish lozim bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki turli xil muassasalarda jamoatchi faollarni tayyorlash yo‘llari ham mavjud. Imkoniyat bo‘lgan jamoalarda yuqorida qayd etilgan usullar yo‘li bilan amalga oshiriladi. Kichik jamoalar yoki imkoniyat sharoitlari bo‘lmaganlar esa sport ixlosmandlarini yaqin atrofdagi o‘quv yurtlari yoki sport klublari hamkorligida bu ishni amalga oshirishlari lozimdir.

Halq orasida «o‘zingdan bo‘lganiga nima yetsin», degan naql bor. Bunda katta xizmat va ma’no bor. Chunki oddiy musobaqani tashkil etish, yoki biro bir sport turi (futbol, voleybol tennis va h.k.) bo‘yicha komanda tayyorlash uchun chetdan murabbiy yoki hakamlarni chiqarish o‘rniga o‘z-o‘ziga xizmat qilishni tashkil qilish ma’quldir. Chetdan kelgan (boshqa jamoa) vakillar «Tekinga mushuk ham oftobga chiqmaydi», degan naqlga amal qilishi mumkin. Shu sababdan ularga to‘lanadigan mablag‘larni o‘z-o‘zlari baham ko‘rishlari yaxshi ish qilishga safarbar etadi.

Xulosa qilib aytganda ishlab chiqarish mehnat jamoalarida ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya-sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish jamoatchi jismoniy madaniyat faollarining o‘rni g‘oyat muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan jamoa rahbarlari, kasaba uyushmalari, Yoshlar ittifoqi, sport klublarning

faoliyatida yaqindan yordam berishlari lozim. Ayniqsa bu yo‘lda sport klublarini pullik xizmatlari (ijara, savdo-sotiq, xomiylik va h.k.) jamoatchilik faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni rag‘batlantirish ishlarida o‘z mazmuniga ega bo‘lishi lozim.

Mehnatkash ishchi va xizmatchilarning salomatligini yaxshilash, ular-ning jismoniy tayyorgarliklarini ta’minlash yo‘li bilan mehnat qobiliyati va ish unumdorligi, samaradorligini oshirishda jamoalarning rahbarlari jiddiy e’tibor berishlari, bunda ilg‘or tajribalar, sinov-ko‘riklarning natijalaridagi maqsadli foydalanishlari lozim.

Bo‘lajak mutaxassis talabalar o‘z sohalari bo‘yicha yuqorida bayon etilgan tashkiliy va uslubiy ish tadbirlarini mukammal o‘zlashtirishlariga to‘g‘ri keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iseyev Sh.T.Futbol jamoalarining g‘alaba qozonishida futbolchilar-ning standart vaziyatlaridan samarali foydalanishi.«Pedagogik ta’lim»J. № 2, 2003 yil.

2. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.

3. Akramov R.A., Talibdjanov A- Yuqori malakali futbochilarni tayyorlash. O‘quv qo‘llanma 2009 y.

4. Atamuxamedova, M., Abdugapparov, A., Mixeyeva, A., & Yormatov, G. VLIYANIYe UMSTVENNOY DEYATELNOSTI U UCHAIЩIXSYA NA GAZOOBMEN V RAZLICHNЬIX EKOLOGICHYeSKIX USLOVIYAX. *SIMVOL NAUKI*, 81.

5. Atamukhamedova, M. R., Yormatov, G. S., & Erkaev, E. A. (2019). Relations between basic exchange and sprint. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(10), 304-308

6. .Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). Mass Sport Movement in Uzbekistan and its Role in Forming a Healthy Lifestyle. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 334-337.

7. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). History of the Sport of Kurash. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 329-333.

8. G’ulomjon, Y. (2023). Metho Yormatov, GS (2020). *CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXYeRCISES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133

9. G’ulomjon, Y. (2023). THE MORAL OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION IN YOUNG CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1155- 1161..

10. G’ulomjon, Y. (2023). MEDICAL BIOLOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF THE MOST HIGHLY QUALIFIED SPORES. *Finland*

International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, *11*(5), 1169-1175.

11. G'ulomjon, Y. (2023). Methodological Principles of Development of Physical Quality of Endurance in Children and Adolescents. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 178-182.

12. Gulomjon, Y. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL ABILITIES OF YOUNG STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 140-149.

13. Ghulom, Y. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 17-25.

14. Gulomjon, Y. (2022). INNOVATIVE IMPROVEMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 119-123.

15. Gulomjon, Y. (2022). THE ROLE AND FUNCTIONS OF THE SCIENCE OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATION SYSTEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(08), 130-134.

16. Sattorovich, Y. G. (2021). SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS OF INTEGRATION OF PHYSICAL AND CULTURAL-MORAL EDUCATION. *Thematics Journal of Education*.

17. Fozilov, H., & Fozilov, I. (2023). PERIODIC PROBLEMS OF THE NATIONAL STATISTICAL SYSTEM. *Engineering problems and innovations*.

18. Ilhomjon, F. (2023). Scientific Description of Table Tennis Racket Evaluation. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 114-118.

19. Fozilov, I. (2022). STATUS OF DIRECTION AND COMPETITION IN SPORTS SPORTS SPECIALTY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 60-64.

20. Fozilov, I. (2022). ORGANIZATION OF RECONSTRUCTION MEASURES AND PROCESSES FOR ATHLETES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 55-59.

21. Patidinov, K. (2023). TEMURBEKLAR MAKTABI HARBIY TEXNIKA LITSEYLARI O‘QUVCHILARINI. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TADQIQOT USLUBLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(35).

22. Umurzoqova, B. (2023). XORIZHIY TIL OKITUVCHILARINING MEDIATALYMGA MUNOSABATI. *Talqin Va tadqiqotlar* , *1* (34).

23. Umurzoqova, B. A. (2022). BOLAZHAK XORIZHIY TIL KOKITUVCHILARINI ZARARLI AXBOROTLAR TAHDIDAN HIMOYALASHDA MILLIY VA UMUMMILLIY KADRIATLARGA ASOSLANISH TAMOYILI. *TALIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR* , 60-62.

24. Patidinov, K. (2023). TEMURBEKLAR MAKTABI HARBIY TEXNIKA LITSEYLARI O‘QUVCHILARINI JISMONIY TARBIYA, SPORT TADBIRLARINING SHAKLLARI VA TURLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(33).

25. Kamoliddin, P. (2023). EFFECTS OF PHYSICAL EDUCATION EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON THE FUNCTION OF THE BODY OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Open Access Repository*, *4*(02), 26-32.

26. Mamadjanov, N., & Hamidov, S. (2023). Analysis of Physical Training Results for High School Students in Fargo City General Four a Schools. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *16*, 58-64.

27. Mamadjanov, N., & Bakirova, M. (2023). Analysis of the Results of Physical Training for Elementary School Students at the 50th Elementary School in Quwa County, Fargo. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *16*, 49-57.

28. Mamajonov, N. va Bakirova, M. (2022). MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING ZHISMONIY TAYORGARLIGI VA RIVOZHLANGANLIGINI TAHLIL KILISH KILISH VA BAGOLASH. *Pedagogik va ta'lim tadqiqotlari Amerika jurnali* , *6* , 13-19.

29. Mamadjonov, N. va Hamidov, S. (2023). Fargo shahridagi umumiy to'rtta maktabdagi o'rta maktab o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya natijalarini tahlil qilish. *Evroosiyo ta'lim va akademik ta'lim jurnali* , *16* , 58-64.

30. Mamadjanov, N., & Nazirov, M. (2023). Methodological Characteristics of Ensuring the Integration of Physical Education in the System of School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *20*, 95-97.

31. Normatovich, U. Z. (2023). BOLALARNING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYA BERISHNING YANGI YO'LLARI. *Konferentsiya* , 96-108.

32. Abduvali, A. va Qurbonali, S. (2023 yil, may). UMUMIY TA’LIM MAKTABIDA JISMONIY TARBIYA FANINDAN SINFDAN TA’LIM TA’LIMLARNI REJALASHTIRISH USULLARIDAN. *E konferentsiya zonasida* (56-65-betlar).

33. Azizovna, U. B. (2022). Development of media culture through media education. *Eurasian Journal of Media and Communications*, *12*, 15-17.

34. Kamoliddin, P. (2023). EFFECTS OF PHYSICAL EDUCATION EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON THE FUNCTION OF THE BODY OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Open Access Repository*, *4*(02), 26-32.

35. Patiddinov, K. D. (2022). Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining Alpomish sog'liqni saqlash testlari standartlari bilan solishtirma dinamikasi. “Fanning dolzarb muammolari” da *: talabalar qarashlari* (297-299-betlar).

O‘QUVCHI-YOSHLARNING YETAKCHI HARAKAT FAZILATLARINI MEXANIZMI

K.D.Patidinov
FarDU Sirtqi bo‘lim Aniq va tabiiy fanlar kafedra o‘qituvchisi
kamolidinpatidinov@gmail.com

Annotatsiya: Jismoniy fazilatlarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, Yo‘nalishni harbiy – amaliyligini va to‘siqlarni muvafaqqiyatli oshib o‘tish, Chidamlilikni rivojlantirishda yuklamaning intensivligi, To‘siqlarni tezlikda olib o‘tishda organizmni tiklanishi, Ta’limning eksperimental metodikasiga to‘siqlardan oshishi, Yo‘nalishni harbiy – amaliyligini va to‘siqlarni muvafaqqiyatli oshib o‘tishni.

Kalit so‘zlar: o‘quv normalari, jismoniy tayyorgarlik, harbiy – amaliy,, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, YUQCH, Tezlikning sifatlarini, Chidamlilik, kuchi yuklamasi, Eksperiment, chidamlilik, prinsip, Charchash, chidamliligi yuqori, nerv-muskul tizimi, fiziologik, mushaklar, anaerob rejim.

Inson organizmida 600 dan ortiq mushaklar mavjudligi, ular miqdor jihatidan juda keng qamrovli, katta hajmda ish bajarish uchun katta quvvat manbai va ularga tejamli faoliyat qudratiga ega bo‘lgan vujudimiz “motori” deb qarash mumkin. Bajariladigan harakatlarni namoyon qilishda mushaklarning o‘zaro uzviyligi orqali ularning faoliyatidan yuzaga keladigan biologik impulslar vujudimizning ichki organlari faoliyatiga ko‘rsatadigan ta’siridan yetarli darajadagi kuch,tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik va bo‘g‘inlarning harakatchanligini namoyon qilamiz.

Bo‘g‘inlarimizga nisbatan mushaklarimiz shunday joylashganki, har qanday ko‘rinishdagi harakatlarimiz davomida tezlanish olish, tezkorlik namoyon qilish va harakatni yo‘nalishini o‘zgartira olish, ularni boshqarish imkoniyati vujudimizni belgilangan zvenosi harakatini tezlashtirishi yoki aksincha, to‘xtatishimiz mumkin bo‘ladi. Mabodo ularga ko‘plab qator mushaklarimizni o‘zaro muvofiqligidan kelib chiqadigan faoliyatlar umumlashib, qo‘shilib, aralashib ishlashi e’tiborga olinsa, mushaklarimiz bajaradigan faoliyatlarning chegarasi beqiyos.Ular vujudimiz kuchi, chidamliligi, chaqqonligi, tezkorligi va egiluvchanligi tarzidagi jismimiz fazilatlari sifatida harakatlarimiz davomida ma’lum jarayon tarzda lozim bo‘gan darajada namoyon bo‘ladi. Xullas, insonning organlari, tuzilmalari shunday mukammalki, uni mexanizmi fundamental tadqiqotlarni taqozo etadi.

Mushaklarimiz juda ham ko‘p sondagi aktiv elementlardan, tolalardan tashkil topganligini bilasiz. Tolalar shunday tuzilganki, ularga asab tizimidan keladigan impulslar ta’sir etishi natijasida qo‘zg‘alish hosil bo‘lib, mushaklarni qisqarishi yuzaga keladi. Bu o‘z navbatida mushak faolligini keltirib chiqaruvchi kimyoviy, biokimyoviy reaksiyalar

oqibati fizik, biomexanik harakatlar, jarayonlarni sodir bo‘lishiga, yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Oqibatda barcha mushaklarni zo‘riqishga olib keladigan, mushak tolalarini uzunligini o‘zgartirishlar, cho‘zilishlar, eshilishlar, taranglik va boshqalari evaziga turli tuman harakatlar sodir bo‘ladi. Bu o‘z navbatida mushaklarni o‘zlariga birlashib tirab olgan suyaklar bo‘g‘inlar yoki o‘z o‘qi atrofida faol ishlab, zo‘riqish namoyon qilib jismlarni ko‘tarish, siljitishdek xizmatlarni bajaradilar. Natijada mushaklar dinamik va statik ishlarni bajaradi.

Statik ishlarda (burchak ushlash, tanani bir butun yoki uning bir bo‘lagini qimirlatmay joyidan siljitmay turish va h.k.lar)dek faoliyatlarda mushaklar o‘zining uzunligi va zo‘riqishini saqlaydi, ya’ni gavdaning u yoki bu bo‘lagi yoki zvenosi makon (fazo)da o‘zini holatini, o‘rnini o‘zgartirmaydi, qo‘zg‘atmasdan bajariladigan ishlar tushuniladi.

Dinamik ishlar davomida mushaklar cho‘zilishi, qisqarishi, eshilishi, buralishi yoki boshqachasiga aytganda – yenguvchi yengiluvchi, mushaklar qotgan holda yoki bo‘shashish rejimida ishlashi amalda kuzatiladi. Ikkala rejimni ko‘z oldimizga keltirsak va his qilishga urinib ko‘rsak, quyidagilar namoyon bo‘ladi: polga balandroqdan sakrab, so‘ng oyoqlar bilan undan depsinib poldan yana tepaga sakrasak, oyoqning tovon bo‘g‘ini, tizza, son bo‘g‘inlarida harakatning birinchi fazasida oyoq qismimiz mushaklari ishi yon berish (yo‘l berish, imkon berish) rejimi evaziga ishlaydi. Jismimiz zvenolarining harakati mushaklarimizni tortilishi hisobiga tormozlanadi. Mushaklar uzunlashib ularni tortish kuchi orta boshlaydi. Shu mashqni ijrosining boshqa fazasida quyidagi holatni kuzatamiz. Depsingandan so‘ng oyoqni barcha bo‘g‘inlarini to‘g‘rilash oyoq mushaklarini faol kichrayishi, qisqarishi bilan kuzatiladi. Bu vaqtda, ayniqsa, harakatni boshlanish qismida mushaklar va ularning faoliyati to‘liq to‘xtaydi. Gavdaning harakati esa o‘z inersiyasi hisobiga davom etadi.

Mushaklarning faoliyatini cheklash rejimidagi ishlarning barchasi – harakatni to‘xtatish, amortizatsiyalash, tanamizning zvenolarini yoki uning bo‘laklari faoliyatini to‘liq sekinlashuvi bilan kuzatiladi. Yengish, oshirish rejimidagi ishlar tanamiz zvenolarining ayrimlarini yoki uning bo‘laklari faoliyatini tezlashishi orqali namoyon bo‘ladi. Amalda bajarayotgan barcha ishlarimizda mushaklarimiz faolligi statik va dinamik ish rejimi asosida yo‘lga qo‘yilishi insoni jismi tarbiyasining qonuniyatlaridandir.

Yuqoridagidan kelib chiqib, mashqlanish uchun mashq tanlashda ularni qaysi rejimda, qanday sur’atda, intensivlikda bajarib mashqlanishni tahlil qilishning ahamiyati katta. Tahlilning natijalariga asoslanib, qanday harakat sifatlarini rivojlantirishga e’tiborni qaratish, bilan trenirovkalarning maqsadi va vazifalarini to‘g‘ri rejalashtirish, belgilash imkoniyati yuzaga keladi.

Inson mushaklari asosan ikki xil rangda – qizil, och qizil va oqishroq deb farqlanadi. Ayrim holatlarda ularni tez yoki ohista (sekin) faoliyatlar sohibi deb ham farqlaydilar. Ularning bunday tipdagi faolligiga sabab ularning tolalaridagi kimyoviy ta’minlanganlik

bo‘lib, sprinter tezligi, uloqtirishdagi tez harakatlar, bokschining zarbalari va boshqalar mushaklardagi mavjud glikogenlar hisobiga (anaerob rejim) amalga oshiriladi. Chidamlilik talab qiluvchi ohista va uzoq davom etadigan ishlar sekin faoliyat ko‘rsatadigan mushak to‘qimalari orqali qon tarkibidagi kislorod evaziga bajariladi.

Aniq, kundalik hayotiy-zaruriy harakatlar inson badanidagi mushaklarning qator guruhlarini o‘zaro muvofiqligiga erishish orqali bajariladi.

Mushaklar faolligining fiziologik sharti ularning ko‘zg‘alishi va toliqishiga borib taqaladi. Mushaklarni faolligi qo‘zg‘alishning kuchi bilan bog‘liq. Toliqqan tortuvchi, ko‘taruvchi mushaklarning kuch ko‘rsatkichlari past bo‘ladi. Mushakning tortish kuchi miqdori, uning ko‘ndalangiga tez qisqarishi bilan bog‘liq. Mushaklar samarali ishlashi uchun eng avvalo ular zo‘riqishlarga tortilgan, jalb qilingan bo‘lishi lozim. Oldin kuchliroq zo‘riqishlarni o‘zida o‘tkazgan mushaklargina effekti yuqori bo‘lgan jismoniy faoliyatlarga qodir bo‘ladi (I.M.Sechenev bo‘yicha).

Shundagina individ o‘zining jismi fazilatlarini ayniqsa kuchi, tezkorligi, chaqqonligi, chidamliligini namoyon qila oladi. Inson o‘z harakatlarida bu qayd qilingan harakat fazilatlariga o‘ta muhtoj bo‘ladi.

Kuchli yoki kuch fazilati yuqori kishilar deb uni namoyon qilishda mushaklaridan aynan o‘sha faoliyat uchun ishlashi zarur bo‘lganlarni emas, unga yordam beradigan boshqa bir guruh mushaklarni ham shu ishga jalb qila oluvchilargina tushuniladi. Kuch namoyon qilishda boshqa mushaklarni jalb qilinishini bilish mashqlanishda muhim ahamiyatga ega.

Tezligi yuqori, yuqori tezlikda faoliyat namoyish qiluvchilar mushaklarini zo‘riqtirish, bo‘shashtirishni oson bajarishi uchun nerv-muskul tizimida qo‘zg‘alishni tez o‘tkazish qobiliyati yuqoriligi bilan ajralib turadilar. Mushaklar qo‘zg‘alishining tezligi nerv jarayonidagi biokimyoviy reaksiyalarni borishi bilan bog‘liq va uni tez o‘tishi, aktiv va passiv qisqarishlarini o‘zaro tez o‘rin almashinishi orqali yuzaga keladi.

Harakatlanish yoki jismoniy ish sharoitida charchash, toliqishga organizmini uzoq vaqt qarshi tura olish qobiliyati sohiblarini ***chidamliligi yuqorilar*** deb qarash qabul qilingan. Toliqish yoki charchash atamalarini qo‘llashda hozircha bahslar mavjud. Toliqish charchashni yuqori bosqichi hisoblanadi. Toliqish bu ish qobiliyatini nisbatan pasaygan yoki kamaygan davridir. Charchash esa sarflangan energiyani tiklash uchun ma’lum vaqt o‘tishi talab qiladigan jarayon. Charchagan odam ma’lum vaqt davomida bajarayotgan harakatinig intensivligini ushlab tura olsa, uni kompensatsiyali charchash deb ataladi. Ish qobiliyatini tiklash uchun ko‘p vaqt talab qiladigan holatdagi ish bajarish davomida tavsiya qilingan intensivlikdagi ishni davom ettira olmasa, uni (***o‘ta charchash)*** yoki “kompensatsiyasiz” charchash deb atash qabul qilingan. Qayd qilingan anatomiya va fiziologiyaga oid bilimlarimiz yetarli bo‘lmasa, harakat sifatlarini tarbiyalash, rivojlantirishda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Iseyev Sh.T.Futbol jamoalarining g‘alaba qozonishida futbolchilar-ning standart vaziyatlaridan samarali foydalanishi.«Pedagogik ta’lim»J. № 2, 2003 yil.

2. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.

3. Akramov R.A., Talibdjanov A- Yuqori malakali futbochilarni tayyorlash. O‘quv qo‘llanma 2009 y.

4. Atamuxamedova, M., Abdugapparov, A., Mixeyeva, A., & Yormatov, G. VLIYANIYe UMSTVENNOY DEYATELNOSTI U UCHAIЩIXSYA NA GAZOOBMEN V RAZLICHNЫIX EKOLOGICHYeSKIX USLOVIYAX. *SIMVOL NAUKI*, 81.

5. Atamukhamedova, M. R., Yormatov, G. S., & Erkaev, E. A. (2019). Relations between basic exchange and sprint. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(10), 304-308

6. .Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). Mass Sport Movement in Uzbekistan and its Role in Forming a Healthy Lifestyle. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 334-337.

7. Sattorovich, Y. G. U., & Tursunaliyevich, F. I. (2023). History of the Sport of Kurash. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(1), 329-333.

8. G’ulomjon, Y. (2023). Metho Yormatov, GS (2020). *CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXYeRCISES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(10), 130-133

9. G’ulomjon, Y. (2023). THE MORAL OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION IN YOUNG CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1155- 1161..

10. G’ulomjon, Y. (2023). MEDICAL BIOLOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF THE MOST HIGHLY QUALIFIED SPORES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1169-1175.

11. G’ulomjon, Y. (2023). Methodological Principles of Development of Physical Quality of Endurance in Children and Adolescents. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 178-182.

12. Gulomjon, Y. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL ABILITIES OF YOUNG STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 140-149.

13. Ghulom, Y. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 17-25.

14. Gulomjon, Y. (2022). INNOVATIVE IMPROVEMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 119-123.

15. Gulomjon, Y. (2022). THE ROLE AND FUNCTIONS OF THE SCIENCE OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATION SYSTEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(08), 130-134.

16. Sattorovich, Y. G. (2021). SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS OF INTEGRATION OF PHYSICAL AND CULTURAL-MORAL EDUCATION. *Thematics Journal of Education*.

17. Fozilov, H., & Fozilov, I. (2023). PERIODIC PROBLEMS OF THE NATIONAL STATISTICAL SYSTEM. *Engineering problems and innovations*.

18. Ilhomjon, F. (2023). Scientific Description of Table Tennis Racket Evaluation. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(3), 114-118.

19. Fozilov, I. (2022). STATUS OF DIRECTION AND COMPETITION IN SPORTS SPORTS SPECIALTY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 60-64.

20. Fozilov, I. (2022). ORGANIZATION OF RECONSTRUCTION MEASURES AND PROCESSES FOR ATHLETES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(3), 55-59.

21. Patidinov, K. (2023). TEMURBEKLAR MAKTABI HARBIY TEXNIKA LITSEYLARI O‘QUVCHILARINI. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TADQIQOT USLUBLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(35).

22. Umurzoqova, B. (2023). XORIZHIY TIL OKITUVCHILARINING MEDIATALYMGA MUNOSABATI. *Talqin Va tadqiqotlar* , *1* (34).

23. Umurzoqova, B. A. (2022). BOLAZHAK XORIZHIY TIL KOKITUVCHILARINI ZARARLI AXBOROTLAR TAHDIDAN HIMOYALASHDA MILLIY VA UMUMMILLIY KADRIATLARGA ASOSLANISH TAMOYILI. *TALIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR* , 60-62.

24. Patidinov, K. (2023). TEMURBEKLAR MAKTABI HARBIY TEXNIKA LITSEYLARI O‘QUVCHILARINI JISMONIY TARBIYA, SPORT TADBIRLARINING SHAKLLARI VA TURLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(33).

25. Kamoliddin, P. (2023). EFFECTS OF PHYSICAL EDUCATION EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON THE FUNCTION OF THE BODY OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Open Access Repository*, *4*(02), 26-32.

26. Mamadjanov, N., & Hamidov, S. (2023). Analysis of Physical Training Results for High School Students in Fargo City General Four a Schools. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *16*, 58-64.

27. Mamadjanov, N., & Bakirova, M. (2023). Analysis of the Results of Physical Training for Elementary School Students at the 50th Elementary School in Quwa County, Fargo. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *16*, 49-57.

28. Mamajonov, N. va Bakirova, M. (2022). MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING ZHISMONIY TAYORGARLIGI VA RIVOZHLANGANLIGINI TAHLIL KILISH KILISH VA BAGOLASH. *Pedagogik va ta'lim tadqiqotlari Amerika jurnali* , *6* , 13-19.

29. Mamadjonov, N. va Hamidov, S. (2023). Fargo shahridagi umumiy to'rtta maktabdagi o'rta maktab o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya natijalarini tahlil qilish. *Evroosiyo ta'lim va akademik ta'lim jurnali* , *16* , 58-64.

30. Mamadjanov, N., & Nazirov, M. (2023). Methodological Characteristics of Ensuring the Integration of Physical Education in the System of School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *20*, 95-97.

31. Normatovich, U. Z. (2023). BOLALARNING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYA BERISHNING YANGI YO'LLARI. *Konferentsiya* , 96-108.

32. Abduvali, A. va Qurbonali, S. (2023 yil, may). UMUMIY TA’LIM MAKTABIDA JISMONIY TARBIYA FANINDAN SINFDAN TA’LIM TA’LIMLARNI REJALASHTIRISH USULLARIDAN. *E konferentsiya zonasida* (56-65-betlar).

33. Azizovna, U. B. (2022). Development of media culture through media education. *Eurasian Journal of Media and Communications*, *12*, 15-17.

34. Kamoliddin, P. (2023). EFFECTS OF PHYSICAL EDUCATION EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON THE FUNCTION OF THE BODY OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Open Access Repository*, *4*(02), 26-32.

35. Patiddinov, K. D. (2022). Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining Alpomish sog'liqni saqlash testlari standartlari bilan solishtirma dinamikasi. “Fanning dolzarb muammolari” da *: talabalar qarashlari* (297-299-betlar).

ZAMONAVIY TEATR MAKTABINI YARATISHDA O‘ZBEKISTON DAVLAT DRAMA TEATRINING BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI

Nazarov Fozil Rahmiddin o‘g‘li
O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti “Kino, televideniye va radio san’ati” fakulteti “ Kino, televideniye va radio rejissorligi” kafedrasi o‘qituvchisi
nazarovfozil477@gmail.com

Annotatsiya: Maqola, bugungi kunda O‘zbekiston davlat drama teatrida qo‘yilayotgan spektakillar, teatr zamonaviylik va zamon talablariga qay darajada javob berayotgani, teatrdagi aktyorlarini tarbiyalashda, tajribali ustozlar tomonidan olib borilayotgan ijodiy ishlar yuzasidan tayyorlandi.

Аннотация: Статья подготовлена на основе спектаклей, поставленных в Государственном драматическом театре Узбекистана сегодня, того, насколько театр соответствует требованиям современности и времени, творческой работы, проводимой опытными педагогами при подготовке актеров театра.

Annotation: Magola,today’s performances at the State Drama theater of Uzbekistan. That the theater meets modernity and the requiments of the time.In training actors in the theater. It was prepared in connection with the creative works carried out by experienced teachers.

Kalit so‘zlar: Aktyor, rejissor, teatr, drama, nasr, asar, p’esa.

Ключевые слова: актер, режиссэр, драма, актер, проза, пьеса.

Key words: actor, director, theater, drama, prose, asar, p’esa.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 3-avgust kuni ziyoliylar bilan uchrashuvida “Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor.Va men ishonaman,nasib etsa,havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz,buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz ham albatta bo‘ladi” degan edilar.

Berilgan bu ishonch va etibordan, teatrlarimizda tarixiy va zamonaviy spektakillarni ketma ket sahnalashtirish jadallashdi. Tarixiy siymolarimizni gavdalantirish orqali ulug‘ avlodlarimiz bilan faxrlanish hissini tuydiradi. Eng asosiysi teatrlarda sahnalashtirilayotgan tarixiy spektakillar,yoshlarni vatanparvalik ruhida tarbiyalashda beminnat faoliyat olib borishadi. Aynan, O‘zbekiston davlat drama teatri sahnasida ustoz sanatkorlar, kamol topayotgan yosh avlodni tarbiyalash uchun, aktyor o‘zida bo‘lgan ishonch hissini uyg’otishdek, teatr pedagogikasining asosiy tamoyillarini o‘rgatib kelishayapti. Respublikamizning barcha profesional teatrlariga uchirma qilinayotgan yosh aktyorlarining, aktyorlik mahorati sirlarini qay darajada

o‘zlashtirayotgani bugungi kun teatrlari ijodiy atmosferasida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

“Yosh Gvardiya” teatri Ergash Masofayevdan va keyingi barcha bosh rejissorlardan meros qolgan teatr hayotidagi yangiliklar saqlanyaptimi? Ham ha, ham yo‘q. Bu masalada teatr tarixiga nazar solsak maqsadga muofiqdir.

Abror Hidoyatov nomidagi o‘zbek davlat drama teatri — yetakchi teatrlardan biri edi. 1968-yil 28 oktyabr da «Yosh gvardiya» teatri nomi bilan tashkil bo‘lgan va «Diydor» (M. Karimov) spektakli bilan ochilgan. Tashkilotchisi va birinchi bosh rejjisyori — Ergash Masofayev. Shirin Azizova, To‘g‘on Rejamatov, Farhod Aminov, Murod Rajabov, Madina To‘xtayeva, Isamat Ergashev, Muhabbat Abdullayeva, Malika Ibrohimova, Noila Toshkanboyeva, Hoshim Arslonovlar teatrning dastlabki aktyorlaridir. Teatr faoliyatining dastlabki-yillarida o‘z yo‘nalishini asosan zamonaviy mavzu va yosh dramaturglar asarlariga qaratdi: «O‘n sakkiz yoshligim» (M. Karimov), “Birinchi bo‘sa” (A. Ibrohimov), «Oqar suvlar» (O‘. Umarbekov), «Besh kunlik kuyov» (Shuhrat), “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» (Hamza) va boshqalar Yuksak g‘oyaviy va chuqur hayotiy haqqoniylikka asoslangan sahna asarlari yangi prinsiplarni targ‘ib qildi. Teatr repertuarining boyishida, aktyorlik mahoratining o‘sishida tarjima asarlar ham muhim rol o‘ynadi. «Bahs» (M. Bayjiyev), «O‘limlarni qoldirib dog‘da” (V. Titov, K. Melenko), «Osvensim jallodlari» (P. Vays) va boshqalar shular jumlasidan.

NATIJALAR. 80-yillarning o‘rtalaridan teatrda novatorlik o‘sdi, g‘oyaviy estetik yo‘nalishi, obrazlar talqini takomillashdi, yangi tipdagi aktyor, rejissura shakllandi. O‘zbek teatri merosi va jahon teatri ijodidan ta’sirlangan holda eng dolzarb, sahna vositalariga boy, yangi sahna shakllari ila yo‘g‘rilgan spektakllar bilan respublikadagi yetakchi teatrlardan biriga aylandi. «Otasining qizi», «Maysaraning ishi», «Farmonbibi arazladi», «Uchinchi orzu», «Qora kamar», «Arshin mol olon», «Iskandar», «Malika», «Paranji sirlari», “Ziyofat», «Tog‘a jiyanlar», «Checha» kabi spektakllar teatrga shuhrat keltirdi.[1]

1996-yil Bahodir Yo‘ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan «Buyuk ipak yo‘li» spektaklida musiqa, xoreografiya, plastik harakatlardan keng foydalanilgan.

Teatr sahnasida ilk bor sahnalashtirilgan «Buxoroi sharif» spektakli (rejjissyor B.Yo‘ldoshev)da rejissor g‘oyasi o‘ziga xos va o‘zgacha yechimga ega. Qadimiy Buxoroning musiqiy madaniyati va milliy koloriti saqlangan holda xalq qo‘shiq va raqslarining spektaklga mohirona singdirilishida folklor uslubiyatining eng murakkab yo‘li tanlangan. U. Shekspirning «Otello», «Qirol Lir» asarlarining sahnalashtirilishi teatr hayotida katta voqea bo‘ldi. Teatr o‘ziga xos ijodiy uslubi bilan boshqa teatrlardan ajralib turadi. Masalan, chet el teatrlari aktyor va rejissorlari bizga kelib rol o‘ynashi

[1] https://qomus.info/encyclopedia/cat-ou/ozbek-davlat-drama-teatri-uz/

(fransiyalik aktyor Fransua Shatto «Iskandar»da Alisher Navoiyni o‘ynagan), spektakl qo‘yishi (amerika rejissori D. Kaplan «Qirol Lir»ni sahnalashtirgan) yoki Bahodir Yo‘ldoshevning chet el teatrlariga borib spektakl qo‘yishi (Laosda «Kelinlar qo‘zg‘oloni», Amerikada «Tinchlik» spektakllari va boshqalar) bunga misoldir. «Qirol Lir»ni sahnalashtirishda rejissor kostyum va sahna bezaklariga yorqin sharq koloritini olib kiradi va u bu bilan asardagi fojia umuminsoniyligiga qaratadi.

MUHOKAMA. Teatr 90-yillarning boshlarida Angliya, Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya, Germaniya kabi mamlakatlarda gastrolda bo‘lib, o‘z spaktakllarini namoyish etgan. Elyor Nosirov, Ne’mat Alimov, Afzal Rafiqov, Aziza Begmatova, Dono Boboxonova, Madina To‘xtayeva, Gulbahor Rahimova, Noila Toshkanboyeva, Hoshim Arslonov kabilar teatrning yetakchi aktyorlaridir. Badiiy rahbari Bahodir Yo‘ldoshev.

Bosh rejissor teatr qaysi asarni qo‘yishni ma’qul topgan bo‘lsa, murakkab ifoda vositalarini izlashga harakat qilishi, faqat o‘zi istagan va jamoa ma’qullagan mo‘jizasini yaratishga intilib kelmoqda.

Umuman olganda o‘zbek teatrlari rejissurasida yangicha badiiy ifoda vositalarini qidirishga katta e’tibor berilayotgani, zamonaviy asarlarni sahnalashtirishda borliqni anglashga qaratilgan yo‘nalishda harakat qilinayotgani quvonarli holda ko‘ramiz. Jorjo Streller aytganidek, “Teatr ham jindak bo‘lsada dunyoni o‘zgartirishga qodir” degan so‘zlari yana amalda o‘z ifodasini topsa deymiz. Bugun o‘zbek rejissorlari izlanishda. Ular poetik teatrning avvalombor mazmun va shakl birligiga katta e’tibor berib, sahnada kechayotgan voqealar bilan uyg‘unlashib ketishi kerakligini anglashmoqda.

O‘zbek Milliy akademik drama teatrida Dilbar va Tilab Mahmudovlarning "Gul-Badan savdosi" spektaklining taqdimoti bo‘lib o'tdi. Asarni sahnalashtiruvchi rejissorlar Tojivoy Isroilov va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Saidkomil Umarov.

Asarda bugungi kunda global muammo hisoblangan odam savdosi haqida fikr boradi. Ma'lumki millatimizning guldek nozik, bokira xotin-qizlari turli xil aldov yo‘llari bilan xorijga olib ketilmoqda va sotib yuborilmoqda. Bu avvalambor yuksak or-nomusga ega bo'lgan o‘zbek millati uchun achinarli holdir. Spektakl fojea janridadir. Chunki unda millat fojeasi ko'rsatib berilgan. Aktyorlarning mahoratli ijrolari, puxta ishlangan senariy, sahnadagi animatsion, audio-vizual vositalar dekoratsiya asarning muvafaqqiyatli chiqishini ta'minlagan.

Asarning kulminatsion nuqtasidagi "Nonsiz hayot bo‘lmaganidek, nomussiz hayot ham yo‘q ekan", "Yurtimning bir hovuch tuprog‘ini xorijning zeru-zarlariga alishmayman" so‘zlar kishining xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi...

Bundan tashqari asarning so‘ngida hur qizlarning "Yor-yor" aytib juvonmarg bo‘lgan qizni borsa-kelmas yurtga olib ketish jarayoni ta'sirli chiqqan...

Achnarli hol shundaki, bugungi kunda oddiy xalqda komediya janriga, dramadan, tragediyadan ko‘ra talab ko‘proq. Chunki tragediya va dramaning tubida falsafiy ma'no yotadi. Bu bilan men komediya janrini qoralamoqchi emasman. Chunki hayot muammolari kulgi asosida bu janrda ham ko‘rsatiladi. Biroq hamma ham bunday deb o‘ylayvermaydi.

XULOSA. Bizga bugun kuchli dramaturgiya, *(shunday dramaturgiya bor)* o‘shanga yarasha rejissura bo‘lishi kerak. rejissor dramani jonlantirishi uchun eng avvalo tomoshabinni jonli suhbatga torta olsin. Teatr tomoshabinni uxlatib qo‘yadigan, uni allalaydigan shifoxona emas, aksincha, toshoshabinni uyg‘otadigan, uni fikrlashga majbur qiladigan tomoshagoh, oliy maskan hisoblanadi. Ana shunda teatr o‘z oldiga qo‘ygan vazifani to‘la bajargan bo‘ladi. Har bir teatr o‘z uslubiga ega bo‘lsin. Biz hikoya qilayotgan “Yosh gvardiya” teatri ana shunaqa teatr sifatida ish boshlagan edi. Va shunday bo‘lib qoladi degan umiddamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammedova G.X. Xonandaning aktyorlik mahorati. -T.: O'zbekiston davlat konservatiryasining nashriyot bo'limi T.2008.

2. Mahmudov J., Mahmudova X. Aktyorlik mahorati. -T.: Fan va tehnologiya, 2014 3.Jo‘ra Mahmud “Ergash Masafaev (Iste’dotlarni kashf qilib)Yangi asr avlodi nashriyoti T 2014

Internet saytlari

1.Ziyonet // w.w.w

2.Ziyouz //.w.w.w

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	EKISHGACHA SAQLASH DAVRIDA URUG‘LIK CHIGITGA ULTRABINAFSHA NUR ELEKTRAVJLANTIRISH QURILMASI BILAN TA’SIR ETISH B.S.Choriyev	4
2.	ISSUES OF IMPROVING THE SYSTEM OF FUNDING JUDGES Abdusamatov Nurullo Qobiljon o‘g‘li	10
3.	BASIC CONCEPTS OF HYPERGEOMETRIC FUNCTIONS Turdiyev Rahmatulla Muhammadali o’g’li	15
4.	МУЛЬТИПАРАМЕТРИЧЕСКОЕ УЛЬТРАЗВУКОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ С ПРИМЕНЕНИЕМ НОВЫХ МЕТОДИК В ДИАГНОСТИКЕ ОБРАЗОВАНИЙ МЯГКИХ ТКАНЕЙ Цой Е.А., Мамадалиева Я.М., Саитназаров Д.	22
5.	TABIIY FANNI O‘QITISH METODIKASI, UNING TARIXI VA TA’LIM-TARBIYAVIY VAZIFALARI Adinamatova Dono Ilxom qizi	27
6.	MODERN QAQC PROCEDURES IN GOLD PROSPECTING AND REASONS FOR THEIR CONDUCT Oganiyozov Bekhruz Bakhtiyorovich	32
7.	LITERATURE POLISHED IN THE LIGHT OF OYBEK Shavkatova Barchinoy	38
8.	MAKTABDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI AHAMIYATI Xasanova Dilfuza Yuldashaliyevna G‘ulomov Asadullox Anvarjon o‘g‘li	40
9.	O‘ZBEK TILI OT YASOVCHI AFFIKSLARIDA POLISEMIYA HODISASI Bekbergenova Go‘zal Ulug‘bekovna	44
10.	WIND TURBINES AND ITS APPLICATIONS Baratov Laziz Suyun o‘g‘li Parmonov Shaxzod Abdumajit o‘g‘li	49
11.	O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA KIRUVCHI TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH SURATLARI VA KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI PICTURES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF DOMESTIC AND INBOUND TOURISM IN UZBEKISTAN AND PERSONNEL TRAINING POLICY Muqumjon Axunov Muhammadaminovich Sayfutdinova Mexrinoz Zahiddin qizi	55
12.	XALQARO OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI NIGOHIDA O‘ZBEKISTON: KUZATUV VA TAHLIL Sagdullayev Otabek Alisherovich	60
13.	XIVA XONLIGINING XIX ASRDAGI TASHQI SIYOSATI Zoyirov Salohiddin Toshturdiyevich	65
14.	PEDAGOG SHAXSIDA QADRIYATLI MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI D. Abdullayeva	71
15.	YENGIL ATLETIKACHILARNING PSIXOLOGIK PEDAGOGIK MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH Fozilov Ilxomjon Tursunalievich	75
16.	SUZISH USULLARI O‘RGATISHDA TAYYORLOV MASHQLARINING O‘RNI	80

	Fozilov Ilxomjon Tursunalievich	
17.	FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TA’LIM VA MASHG‘ULOTNING ASOSIY PRINSIPLARINI AMALGA OSHIRISH Yormatov G‘ulomjon Sattorovich	85
18.	VOLEYBOLDA O‘RGATISH BOSQICHIDA TA’LIM VA MASHG‘ULOT BIRLIGI Yormatov G’ulomjon Sattorovich	91
19.	JISMONIY MADANIYAT VA SPORT BO‘YICHA ILMIY – PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH VA ILMIY TADQIQOT ISHLARINI TASHKIL ETISH A.A.Muhiddinov	97
20.	JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH A.A.Muhiddinov	105
21.	JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA PROFFESIONALIZM I.X.Abdullayev	111
22.	ЖЕНСКОЕ ЛИДЕРСТВО В ПОЛИТИКЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ Мирзаева Маъсуда	117
23.	MAKTAB O‘QUVCHILARIDA JISMONIY FAZILATLARNI TARBIYALASH XUSUSIYATLARI I.X.Abdullayev	123
24.	MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASHDA “TALABA” SPORTINING MOHIYATLARI Sh.O.Tillayev	129
25.	MUTAXASSISLAR TAYYORLASH ISHLARINI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH ISHLARI Sh.O.Tillayev	135
26.	SPORT INSHOOTLARI K.D.Patidinov	141
27.	O‘QUVCHI-YOSHLARNING YETAKCHI HARAKAT FAZILATLARINI MEXANIZMI K.D.Patidinov	148
28.	ZAMONAVIY TEATR MAKTABINI YARATISHDA O‘ZBEKISTON DAVLAT DRAMA TEATRINING BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI Nazarov Fozil Rahmiddin o‘g‘li	154

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2024-yil. 160 bet.
© Talqin va tadqiqotlar,
© Mualliflar jamoasi.